DECEMBER 23 / 2023

BUXORO INNOVATSION TIBBIYOT INSTITUTI
BUKHARA INNOVATIVE MEDICAL INSTITUTE

№3

TIBBIYOT SIRLARI

(MEDICINE SECRETS)

The official news of BITI

USHBU SONDA:

"Milliy qadriyatlar", milliy taom «Osh tanlovi» o`tkazildi

"Bayrog`imiz-faxru g'ururimiz" mavzusida o'tkazilgan tadbir

BITI da «ZAKOVAT» intelektual o`yini bo`lib o`tdi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish

YO`L QOIDASI - UMR FOYDASI!

Xonanda Jaloliddin Ahmadaliyev bizning institutda konsert berdi

"1-dekabr-OITSga qarshi kurash kuni" munosabati bilan rasmlar tanlovi o'tkazildi.

"Konstitutsiyam qadr-qimmatim " mavzusida tadbir o'tkazildi.

"Korrupsiya-kelajakka tahdid" mavzusida davra suhbati o'tkazildi.

Davlat madhiyasi qabul qilinganligining 31 yilligi munosabati bilan tadbir o`tkazildi

Talabalar xalqaro fan olimpiadasiga ishtirok etishdi

"Yoshlarni yot g'oyalardan himoya qilish" maqsadida davra suhbati o`tkazildi.

«QVZ» da talabalarimiz viloyatda 1-o`rinni egallashdi

Maqolalar va tezislar

Sport yangiliklari

Qiziqarli krasvordlar

Buxoro innovatsion tibbiyot institutining nashri
Buxoro innovatsion tibbiyot institutining nashri
Buxoro innovatsion tibbiyot institutining nashri

"Ona yurtim maskanlari: urf-odatlar, udumlar va qadriyatlar!" mavzusida talabalar bilan milliy sayl tashkil qilindi.

Milliy qadriyatlar milliy ma'naviy madaniyat ifodasi bo'lib, har bir millatning insoniylik xazinasiga qo'shgan munosib hissasining hosilasidir. Milliy qadriyatlarning negizini urf - odatlar, rasm rusumlar, bayramu sayllar tashkil etadi. O'zbek milliy qadriyatlari mazmunida insonparvarlik g'oyalari yotadi. Barkamol shaxsni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanish bugungi kunda ta'lim tarbiya jarayoni oldida turgan eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham mamlakatimizda yaratilgan bu betakror an'ana va marosimlar, milliy qadriyatlar va urf odatlarni o'rganish hamma davrlarda ham bo'lgan. Yangi O'zbekistonda milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarning qayta tiklanishi, o'zbek xalqining o'ziga xos milliy qadriyatlarining shakllanishi qanchalik uzoq tarixiy jarayonda sodir bo'lgan bo'lsa, uning milliy qadriyatlari ham shunchalik uzoq tarixiy jarayon davomida shakllangan. Shu munosabat bilan Buxoro innovatsion tibbiyot instituti talabalari ishtirokida milliy qadriyatlarga hurmat hissini kuchaytirish maqsadida "Ona yurtim maskanlari: urf-odatlar, udumlar va qadriyatlar!" mavzusida talabalar bilan milliy sayl tashkil etildi.

Talabalar qadriyatlar xalqimizning bebaho boyligi, jamiyatimiz, millatimiz, davlatimiz taraqqiyotining asosiy omillaridan biri ekanligini anglab, azal-azaldan xalqimizga xos bo'lgan milliy qiyofani shakllantiruvchi mardlik, tantilik, mehmondo'stlik, saxovatpeshalik, o'zaro hurmat, birodarlik, bag'ri-kenglik, mehribonlik kabi betakror fazilatlarni namoyon etib, milliy qadriyatlarimiz hisoblangan alla, laparlar, kelin salom, milliy liboslar,milliy qo'shiqlar,milliy raqslar namoyishi havola qilindi. Shuningdek talaba yoshlar o'rtasida milliy sport o'yinlari bo'yicha musobaqalar tashkil etildi. B u x o r o innovatsion tibbiyot institutida tahsil oladigan 26 ta guruh qatnashib, milliy urf-odatlar, udumlar va qadriyatlar mavzusida "Osh chempionati" da ishtirok etib, 5 ballik tizimda baholandilar.

Tadbir davomida talabalar tomonidan milliy sport o'yinlaridan arqon tortish, tosh ko'tarish kabi sport turlari ham namoyish etildi.

"18-noyabr O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i tashkil topgan kun"ning 32 yilligi munosabati bilan "Bayrog`imiz-faxru g'ururimiz" mavzusida tadbir o`tkazildi.

Milliy bayrog'imizning 32 yilligi O'zbekiston bo'ylab keng nishonlanayotgani unga hurmat tuyg'usini shakllantirish hamda bayrog'imizni ko'klarga ko'tarish har birimiz uchun milliy g'urur hisoblanadi. Davlat madhiyasini ijro etish bilan "Bayrog`imiz-faxru g'ururimiz" nomli tantanali tadbir boshlandi. Buxoro innovatsion tibbiyot instituti 3d23-guruh talabalari bugungi kunda bayrog'imiz faqatgina rasmiy munosabatlar doirasida emas, balki har ko'ngilga, har oilaga kirib borishi, insonlarning quvonchlari bugun davlat ramzlari bilan uyg'unlashgan holda ifodalanishi bu go'zal holatligi, jahon sport arenalarida, jahon hamjamiyatidagi siyosiy munosabatlarda baland ko'tarilgan O'zbekiston bayrog'i, tabiiyki, qalbimizni iftixorga, g'ururga to'ldirganligi haqida ta'kidladilar. Taraqqiyot yo'lidan dadil qadamlar ila qat'iy borayotgan O'zbekistonning g'ururi, sha'ni, ori bu bayrog'imiz deb tadbir tashkil qildilar.

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti kafedra mudiri, dotsent K.Baxromova so'zga chiqib, talabalarga qarata mustaqil davlatchiligimiz ramzlaridan bo'lgan bayrog'imiz o'zida Vatanimiz o'tmishi va bugunining muhim qirralarini aks ettirish, yurt bayrog'iga nisbatan hurmat tuyg'usini yuksaltirish, uning ulug'vorlik kasb etuvchi mohiyat mundarijasini anglash barchamiz uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi deb ta'kidladliar. Har bir fuqaro Vatan bayrog'i poyida tiz cho'kib, muqaddas ona tuprog'ini matonat va sadoqat bilan himoya qilishga qasamyod qilishi bejiz emasligi haqida gapirib o'tdilar, chunki bayroq jasorat, g'urur, fidoyilik, or-nomus maktabidir. Muqaddas tug'imiz eng oliy sahnalar, eng yuqori marralarda, jahon arenalarida, nufuzli sport musobaqalarida baland ko'tarilib, Yangi O'zbekistonning chinakam bo'y-bastini namoyon etayotgani barchada g'urur va iftixor tuyg'ularini jo'sh urdiradi.

Talabalar o`rtasida "Zakovat " intellektual o'yini bo`lib o`tdi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-martdagi yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari , kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha ilgari surgan 5 ta muhim tashabbusning ijrosi, hamda mamlakatimizda yoshlarning ijtimoiy - ma'naviy bilimlarini yanada mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularning jamiyat hayotidagi ijtimoiy faolligini oshirish, hamda yoshlarni Vatanimiz," Xalqimiz, milliy qadriyatlarimiz, tarixiy-ma'naviy me'rosimizga hurmat va sadoqatli qilib tarbiyalash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun imkoniyat yaratish, iqtidorli yoshlarning mantiqiy bilimlarini oshirish, ularni saralash va intellektual o'yinlarga keng jalb qilish, ushbu o'yinlar tashkil qilinishini institut tomonidan qo'llab-quvvatlash va zarur shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, talabalarning intellektual salohiyatini yuksaltirish maqsadida institut talaba yoshlari o'rtasida noyabr oyining har payshanba ,ya'ni 2,9,16,23,30 noyabr kunlari "Zakovat" intellektual o'yini tashkil qilinganligi haqida to'xtalib, tanlovda Buxoro innovatsion tibbiyot instituti talabalaridan tashkil topgan 6 ta jamoa ishtirok etdi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish

Kun tartibi masalasi yuzasidan Yoshlar bilan ishlash va tashkiliy ishlar bo'yicha prorektor T.T.Odinayev so'zga chiqib, Buxoro innovatsion tibbiyot instituti talaba yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy hokimlik va boshqa mutasaddi idoralar bilan hamkorlikda ishlash yo'lga qo'yilgan. Shu munosabat bilan mutasaddi idoralar davra suhbati va uchrashuvlar tashkil etish bo'yicha turli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda deb ma'ruza qilib, soz'ni ichki ishlar boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari polkovnik Bahodirxo'ja Sharipovaga so'z berdi. Jamiyatda jinoyatlarni oldini olish bo'yicha hora-tadbirlar olib borishga qaramay jinoyatlar uchrayotgani, jinoyat qilgan shaxslarning har uchinchisini yoshlar tashkil qilayotgani afsuslanarli deb talabalarga ma'ruza qildi.

Buni Prezident Shavkat Mirziyoyev 28 iyul kuni huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazgan videoselektor yig'ilishida qayd etgan edilar. Sodir etilayotgan jinoyatlarning 32 foizi o'g'rilik va firibgarlik hisoblanadi. Ushbu toifadagi jinoyatlarning eng ko'pi Toshkent shahri va Farg'ona viloyatida qayd qilingan. Voyaga yetmaganlar ichida o'ta og'ir jinoyat sodir etganlar ham borligi, bu borada viloyatda ham, respublikada ham eng yomon ahvol Qo'qon shahrida ekani ko'rsatib o'tildi.Viloyat prokurorining birinchi o'rinbosari Bobur Kamolov so'zga chiqib, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, jinoyatni aniqlash, uning negizini topish, huquqbuzarliklarning oldini olish, uni jilovlash mutasaddilarning eng asosiy vazifasidir deb, Jinoyatchiga jazo berishdan ko'ra, uning oldini olish afzal.

YO'L QOIDASI - UMR FOYDASI!

Ijtimoiy tarmoqlar bugun qudratli axborot quroliga aylanganligi, ijtimoiy tarmoqlar yordamida yoshlarning qalbi, ongi va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilayotganligi, buning natijasida yoshlar ma'naviyati izdan chiqishiga olib kelishi, shu boisdan ham, turli-tuman g'oyaviy, mafkuraviy va axborot xurujlarining avj olishini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz darkor. Bugunning yoshlari axborot texnologiyalarini yaxshi o`zlashtirayotgani, lekin undan hamma yoshlar ham to`g`ri foydalanmayotganligi, ba'zi yoshlar telefon orqali har xil internet saytlarga kirib, pornografiya, ur-yiqit, buzg`unchilik ruhidagi diniy ekstremistik mahsulotlarini olib tomosha qilayotganligi, buning natijasida qonun oldida javobgarlikka tortilayotganligi haqida Buxoro shahar IIO FMB YXXB TTG inspektori,katta serjant, D.Shavkatov so'zga chiqib, yo'l harakati qoidalari to'g'risida to'xtalib,talabalarga yo'ldan o'tayotgan vaqtda ehtiyot bo'lishlari, yo'l qoidalariga amal qilishlari tushuntirildi va yo'l harakati bilan bog'liq baxtsiz hodisalar haqida misollar keltirildi

Buxoro shahar IIO FMB YXXB TTG inspektori D.Shavkatov 138-modda-piyodalar va yo'l harakati va boshqa ishtirokchilarining yo'l harakati qoidalarini buzishi to'g'risida ekanligini aytib, piyodalarning yo'l harakatini tartibga soluvchi signallarga bo'ysunmasligi, ularning yo'lning harakat qismini belgilanmagan joylardan kesib o'tishi, piyodalar yo'lning qatnov qismida, shu jumladan piyodalar o'tish joyida harakatlanayotganda telefondan foydalanishi, kitoblarni yoki davriy nashrlarni o'qishi, videomateriallarni tomosha qilishi hamda audiomateriallarni eshitishi, e'tiborni chalg'itadigan boshqa elektron vositalardan foydalanishi, shuningdek, moped va velosiped haydovchilarining, ulovli aravani boshqarib boruvchi va yo'ldan foydalanuvchi boshqa shaxslarning yo'l harakatini tartibga soluvchi signallarga bo'ysunmasligi, ustunlik beruvchi, taqiqlovchi yoki ko'rsatma beruvchi yo'l belgilari talablariga rioya etmasligi - bazaviy hisoblash miqdorining uchdan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'lishini aytib o'tdi. Talabalarni yo'ldan o'tayotgan vaqtda ogoh bo'lishga, yo'l harakati qoidalariga rioya qilishga chaqirdi.

Xonanda Jaloliddin Ahmadaliyev bizning institutda konsert berdi

Buxoro innovatsion tibbiyot institutida talabalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni madaniy hordiq olishlari uchun institut ta’sischisi tomonidan estrada san’atining yorqin yulduzi, yoshlarning sevimli xonandasi Jaloliddin Ahmadaliyev konserti tashkil etildi. Jaloliddin Ahmadaliyev tomonidan ijro etilgan zamonaviy estrada yo‘nalishidagi qo‘shiqlar barcha professor-o’qituvchilar va talabalarga ko‘tarinki kayfiyat ulashdi.

"1-dekabr-OITSga qarshi kurash kuni" munosabati bilan rasmlar tanlovi o'tkazildi.

Mamlakatimizda ulkan o'zgarishlar ro'y berayotgan, yoshlar jamiyat hayotida tobora faollashib, o'z o'rniga ega bo'lib borayotgan bir vaqtda ayrim irodasi sust o'smirlarimiz giyohvandlik balosiga mubtalo bo'layotgani barchamizni tashvishga soladi. Zero, og'u inson jismini qanchalik xarob qilsa, xuddi shunday jamiyatga ham mislsiz darajada zarar yetkazadi. Asr vabosi deb atalayotgan bu illat tinch-totuv yashayotgan oilalarni buzadi, bolalarni yetim qiladi, muhtojlik, qashshoqlikda yashashga majbur etadi. Oqibati esa, albatta, ayanchli yakunlanadi. Narkolog vrach A.X.Fayziyevga o'z ma'ruzasida, asr vabosiga qarshi kurashish barchamizning ishimiz. O'zini shu yurt farzandiman, deb bilgan har bir fuqaro bu harakatdan chetda turmasligi kerak. Mazkur jarayon umummilliy kurashga aylanmog'i shart. Shundagina minglab yoshlarimizning kelajagini, oilalarimiz osoyishtaligini saqlab qolgan bo'lamiz.

Giyohvandlik vositalarini, qaysi turi bo'lmasin, iste'mol qilishni boshlagan shaxs avvaliga unga o'rganish hosil qilishini barchamiz bilamiz. Ammo bir yil o'tar-o'tmas giyohvand mehnatga yaroqsiz holatga kelib qoladi. Natijada jinoyatga qo'l urishga majbur bo'ladi, ya'ni, navbatdagi giyohvandlik vositasini qabul qilish maqsadida o'g'irlikni o'z uyidan - oilasidan boshlaydi.

Giyohvandlik, OITS, gepatit, sil kabi og'ir va bedavo xastaliklarning tarqalishiga ham sabab bo'ladi. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, giyohvandlikka ilk bor qadam qo'yish yoshlarda ko'proq 11-17 yoshlar o'rtasida kuzatiladi. Bu paytda fojianing oldini olish nisbatan osonroq.

- So'ng ikkinchi davr boshlanadi. Bunda yoshlar bir yoki bir necha marta giyohvandlik vositasini iste'mol qilib ko'radilar. Keyinchalik esa uning "quli"ga aylanishadi. Ularning fikri-zikri har qanday yo'l bilan, hatto jinoyat sodir etib bo'lsa-da, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun og'u topish bo'lib qoladi.

Yomon yo'ldan qaytib, to'g'ri yo'lga kirish uchun har qanday inson imkon topa oladi. Imkon topmaganlar esa jaholat girdobiga botadilar, hayotlarini barbod qiladilar. Shu o'rinda, giyohvandlik balosi avj olishiga xorijda ishlab chiqarilgan jangari, axloqsizlikni targ'ib etuvchi filmlar ham katta "hissa" qo'shayotganligini qayd etish joiz. Tungi barlarda to tong otguncha kechadigan jazavali shovqin-suronu maishatlar ham ayrim og'ufurushlarga qo'l kelmoqda. Ayrim yoshlar ularning "to'ri"ga osongina ilinmoqda.

Giyohvand moddalar iste'mol qilishning ruhiy va jismoniy tobelik belgilari to'g'risida, giyohvand moddalarning inson organizmiga nojo'ya ta'siri, irsiyatga ta'siri natijasida ruhiy va jismoniy jihatdan zaif bolalarning dunyoga kelishi, giyohvandlikning jamiyatimizga iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy og'ir oqibatlari, sodir etilayotgan jinoyatchilikning ko'pchiligini giyohvand va giyohvand moddalarni iste`mol qilgan insonlar tomonidan sodir etilayotganligi aytib o'tildi. Spirtli ichimliklar ichadigan insonlarda oshqozon ichak yallig'lanishi va yara kasalliklari, jigar serrozi, xotira, diqqat va aqliy faoliyatning pasayishi, shaxs o'zgarishlariga olib keladi.

Tamaki chekish yuqori nafas yo'llarining yallig'lanish kasalliklari, o'pka raki, yurak, qon-tomir kasalliklariga olib boradi. Nos chekish ovqat hazm qilish tizimining yallig'lanishi, tishning sarg'ayib ketishi, til osti raki kasalliklariga olib borishi ta'kidlab o'tildi.

Ushbu illatlarning oldini olish uchun har bir inson so'g'lom turmush tarziga rioya qilib, o'z vaqtida sport bilan shug'ullanishi, ko'proq kitob o'qishi va foydali mehnat bilan shug'ullanishi kerakligi aytib o'tildi

“Konstitutsiyam qadr-qimmatim ” mavzusida tadbir o’tkazildi.

***Konstitutsiya har qanday davlatning asosiy qonunidir. U jamiyat uchun ishlashi, uning talab va ehtiyojlarini qondirishi kerak. Konstitutsiyaning mazmuni- mamlakatning,davlat, ijtimoiy va siyosiy hayotining barcha asoslarini belgilashdan iborat. Boshqacha aytganda, u huquq tizimining asosi va poydevori bo‘lib, boshqa barcha qonunlar uning asosida quriladi. Lekin, shu bilan birga, Konstitutsiya qat’iy, o‘zgarmas hujjat emas. Agar Konstitutsiyani o‘zgartirish zarurati paydo bo‘layotgan bo‘lsa, demak, bu jamiyatning evolyutsion rivojlanishiga asoslangan holda, O‘zbekistonda yaqin kelajakda bo‘lgan maqsadlarimizni belgilab olish, ochiq va ishonchli davlat qurish uchun hayotiy zaruratdan dalolat beradi! O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi mazmun mohiyati, unda ilgari surilgan yangi normalar, huquq va majburiyatlar haqida batafsil tushuntirib berdilar. Xulosa qilib aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlat yoshlarga g‘amxo‘rlik masalaasida o‘z zimmasiga g‘oyat muhim majburiyatlarni olgani alohida diqqatni tortadi. Eng asosiysi, mazkur konstitutsiyaviy normalar nafaqat O‘zbekiston yoshlari manfaati, balki butun jamiyatimiz va mamlakatimizning kelgusi taqdiri uchun nihoyatda ahamiyatlidir.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida” 2023-yil 16-noyabrdagi F-72-sonli farmoyishiga muvofiq Buxoro innovatsion tibbiyot institutida Konstitutsiyamizning 31 yilligiga bag‘ishlab 9d23 guruh talabalari bilan “Konstitutsiyam qadr-qimmatim ” “mavzusida tadbir o’tkazildi. Talabalar Buxoro gornizoni harbiy orkestri jamoasi musiqiy chiqishi orqali madhiyani kuyladilar.

Tadbirda boshlovchilar tomonidan yangilangan Konstitutsiyamiz mazmun-mohiyati va “O‘zbekiston– 2030” strategiyasining asosiy ustuvor yo‘nalishlari doirasida belgilangan tub islohotlar haqida alohida to‘xtalib o‘tildi.Talabalar yangi Konstitutsiya moddalarini sharhlab berib,sh’erlar va sahna ko’rinishi va raqslar ijro etdilar.

Buxoro gornizoni harbiy orkestri rahbari Jumaniyozov Jonibek so’zga chiqib,barchani bayram bilan tabrikladi va o’zlarining musiqiy chiqishlarini namoyish etdilar.

Tadbir so’ngida 9d23 guruh talabalari tomonidan “Hech kimga bermaymiz seni O’zbekiston“qo’shig’i ijro etildi va tashrif buyurgan mehmonlarga minnatdorchilik bildirildi.

“Korrupsiya-kelajakka tahdid” mavzusida davra suhbati tashkil etildi

”9-dekabr- butunjahon korrupsiyaga qarshi kurash kuni”, korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo’lgan global muammolardan biridir. Korrupsiya o’zida ta’magirlikni qamrab olgan holda jamiyatning ma’naviy ustunlari hamda demokratiyani yemirib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiy etishi uchun xavf tug’diradi. Yoshlarimizni davlat va jamiyat hayotining barcha sohalaridagi mavjud korrupsiyadan ogohlantirish, korrupsion huquqbuzarliklar sodir etilgani uchun jazo muqarrar ekanligini chuqur anglatish maqsadida Buxoro innovatsion tibbiyot instituti talabalari o’rtasida “Korrupsiya-kelajakka tahdid” mavzusida davra suhbati tashkil etilib, so’zni tashrif buyurgan mehmonlardan Buxoro shahar IIO FMB TDX JQB boshlig’i Qodir Salimovich Karamatovga berildi. Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiya holatlarining oldini olish bo‘yicha professor-o‘qituvchilar va talaba-yoshlarning huquqiy bilimi va madaniyatini oshirish, mamlakatimizda inson huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgani muhim masala ekanligini ta’kidlab o‘tdi. U o‘z so‘zida korrupsiyaning kelib chiqish sabablari, uning omillari, davlat va jamiyatga keltiradigan zararlari, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha me’yoriy–huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgani, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtda oluvchi, beruvchi va o‘rtada vositachi ham jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilab qo‘yilgani jumladan, eng kam oylik ish haqqining 50 barobaridan 100 barobarigacha jarima, 2 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoki 5 yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi qo‘llanilishi haqida tushuntirib o‘tdi. U o‘z so‘zida davom etar ekan korrupsiya global muammolardan biri bo‘lib, unga qarshi kurashish bo‘yicha ko‘plab xalqaro hujjatlar ishlab chiqilgani, ushbu xalqaro hujjatlarning aksariyati mamlakatimizda ratifikatsiya qilingani, umuman korrupsiya va u bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashish, uning oldini olish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgani, xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunida fuqarolar huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari, davlat hamda fuqarolik jamiyati hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarligi kabi prinsiplar mustahkamlangani ta’kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilinganligining 31 yilligi munosabati bilan "Olamni mahliyo aylagan diyor" mavzusida tadbir o'tkazildi.

Buxoro innovatsion tibbiyot instoitutida O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining qabul qilinganligining 31 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan "Olamni mahliyo aylagan diyor" mavzusida o'tkazilgan tadbir haqida Kun tartibidagi masala yuzasidan Ma'naviy va psixologik ko'maklashish markazi bo'lim boshlig'i G.R.Jumayeva so'zga chiqib tadbir to'g'risida quyidagilarni bayon etdi: Davlat madhiyasi-davlatning ramzlaridan biri.Madhiya tantanali qo'shiq bo'lib, rasmiy davlat marosimlari, bayram tantanalarida, davlat delegatsiyalari, mehmonlarni kutib olish va kuzatish chog'ida ijro etiladi.Davlat madhiyasi ijro etilganda hamma ishtirokchilar o'rnidan turadi, fuqarolar bosh kiyimlarini yechib, qo'lni ko'krakka qo'yib tinglaydi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi gerb va bayroq bilan birga O'zbekiston Respubiikasi Davlat suverenitetining ramzidir. O'zbekiston Respubiikasi Davlat madhiyasining matni va musiqasi O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 10-dekabrdagi 768-XII-sonli O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risidagi Qonuni bilan tasdiqlangan! Qonunda madhiyamiz davlat suverenitetining ramzi, unga katta ehtirom bilan qarash har bir yurtdoshimizning vatanparvarlik burchidir, deb belgilab qo'yilgan. O'zbekiston fuqarolari, shuningdek, mamlakatimizda yashab turgan boshqa shaxslar ham madhiyamizni hurmat qilishi shartligi alohida ta'kidlangan. Davlat madhiyasining muallifi O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov bo'lib, musiqasini O'zbekiston xalq artisti, atoqli bastakor Mutal Burhonov yaratgan. Madhiyada xalqimizning ezgu orzu-umidlari, kelajakka mustahkam ishonchi teran ifodalangan. Unda mardona va sharaflarga boy o'tmishimiz, milliy an'ana va qadriyatlarimiz, tinchligimiz,osoyishtalik, millatlararo totuvlik va birodarlik kabi umuminsoniy tuyg'ular tarannum etilgan. Madhiya -qalbida o'z Vataniga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bor har qanday kishida milliy g'urur, o'ziga xos faxr, eng muhimi yurtga mehr uyg'otadi. Bu milliy timsolda xalqning o'tmishi, buguni va kelajagi, shuningdek, ziynati, orzu-o'yi, maslak-maqsadi mujassam. O'zbekiston Respublikasi madhiyasi yoshlarda Vatanga muhabbat, boy tariximizga, milliy o'zligimizga chuqur hurmatni shakllantirishda, farzandlarimizning har tomonlama barkamol va yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishida muhim tarbiyaviy vosita bo'lib xizmat qilmoqda.O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasiga yuksak ehtirom bilan qarash O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining vatanparvarlik burchidir. Shu munosabat bilan Buxoro innovatsion tibbiyot institutida 1d23 guruh talabalari tomonidan "Olamni mahliyo aylagan diyor" nomli tadbir o'tkazildi. Tadbirda talabalar Davlat ramzlari- bayroq, gerb, madhiya haqida uning qabul qilinishi va ahamiyati haqida tushunchalar berdilar.Talabalar tomonidan madhiya to'grisidagi qonunning moddalaridan aytildi. Mutal Burxonov, Abdulla Oripov hayoti va ijodi haqida alohida gapirildi. Ularning suratlari namoyon etilib, yana bir bor xotirlandi. Videorolik orqali madhiyamizning qabul qilish jarayoni haqida namoyishlar qo'yib borildi. Shundan so'ng, barcha tadbir ishtirokchilari va qatnashchilarini madhiya qabul qilinganligining 31 yilligi bilan tabriklab, madhiyani o'rganish, uning har bir so'zini anglab yetish,uni hurmat qilish - har bir fuqaroning vatanparvarlik burchi ekanligi aytib o'tildi. Talabalar tomonidan tadbir qatnashchilariga madhiyamizda nimalar talqin qilinganligi, qaysi vaqtlarda madhiya kuylanishi, madhiyani hurmat qilish haqida gapirib o'tildi.Tadbir davomida sahna ko'rinishi va vatanni madh etuvchi qo'shiq va she'rlar ijro etildi.

Talabalar xalqaro fan olimpiadasiga ishtirok etishdi

2023-yil 15-16-dekabr kunlari Samarqand davlat universitetida bo'lib o'tgan "Samarqand-2020" IV-Xalqaro fan olimpiadasida Buxoro innovatsion tibbiyot instituti talabalari ham ishtirok etishdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan "2020-yilda Yoshlar o'rtasida tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan yo'l xaritasi"ning 8-bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, talabalarning mutaxassislik va umumkasbiy fanlar bo'yicha o'z qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, talabalar iste'dodlarini ro'yobga chiqarishga keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan "Samarqand-2020" IV-Xalqaro fan olimpiadasida ko'zlangan maqsad tibbiyotning turli yo'nalishlari va fundamental fanlar bo'yicha bilimlarni ommalashtirish, shuningdek, o'quvchilarning o'quv faoliyati va fanga qiziqishini oshirish, o'quvchilarning ilmiy va ijodiy salohiyatini namoyon etishi uchun imkoniyatlar yaratilgan.

Unda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Rossiya, Turkiya, Ozarbayjon, Belarus, Ukraina va mamlakatimizning tibbiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarining 670 nafar talabasi an'anaviy, 4141 nafar talaba onlayn tarzda qatnashdi. Shuningdek, olimpiadada oliy o'quv yurtlari rektor hamda professor-o'qituvchilari ishtirok etishdi.

Tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarining IV xalqaro olimpiadasida ishtirok etuvchilar ikki bosqichda, test sinovlari va amaliy ko'nikmalarini namoyish etish orqali bahslashdi. Shu bilan bir qatorda an'anaviy tarzda qatnashayotgan talabalar o'z amaliy bilimlarini jahon standartlari talablariga javob beruvchi 7-avlod simuliatsion robotlari orqali sinovdan o'tkazdi.
Sinovda bizning talabalar quyidagi natijalarga erishdilar:

№	Fan nomi	F.I.Sh.	Guruh nomi	Olgan o'rni Diplom
1.	Patologik anatomiya	Kamolov Shaxzodbek Usmanovich	6d21	«Vaziyatli masalalarda eng yaxshi yechim» nominatsiyasi
2.	Gistologiya	Sayfulayev Asilbek Oltin o'gli	3d22	«Muammoni yechishda ilmiy yondashuv» nominatsiyasi
3.	Patologik fiziologiya	Kamoljonova Go'zal Odiljon qizi	3D21	«Eng yaxshi klinik fikrlovchi»
4.	Fiziologiya	Nuriddinov Mirjalol Ashravovich	8D22	4-o'rin «Ibn Sino izdoshlari» nominatsiyasi
5.	Lotin tili va tibbiy terminologiya	Xudoynazarov Fayyoz Muxammadjon o'g'li	1D22	4-o'rin «Ibn Sino izdoshlari» nominatsiyasi
6.	Anatomiya	Sabirova Marjona Olimboy qizi	7d22	«Muammoni yechishda ilmiy yondashuv» nominatsiyasi
7.	Biokimyo	Shomurodov Elbek Nuralievich	5d22	5- o'rin «Mutloq g'olib" nominatsiyasi
8.	Xirurgik stomatologiya	Kamolova Elnora Kamolovna	9s20	«Hozirjavob talaba» nominatsiyasi

Talabalarda bu olimpiada katta taassurot qoldirdi va kelajakda o'z ustlarida yanada ko'proq islashga zamin yaratdi.

“Yoshlarni yot g’oyalardan himoya qilish” maqsadida davra suhbati o‘tkazildi.

Institutning Yoshlar va tashkiliy ishlar bo’yicha prorektor T.T.Odinayev so’zga chiqib, “Yoshlarni yot g’oyalardan himoya qilish” mavzusidagi davra suhbatidan maqsad-yoshlarimiz orasida loqaydlikka barham berish, ularni doimo sergak va hushyor bo’lishga chaqirish, zararli illatlar ta’sirlariga tushib qolishlarini oldini olish ekanligi haqida ta’kidlab o’tdi. Davra suhbatida qatnashgan Buxoro shahar IIO FMB Yoshlar ishlari bo’yicha katta inspektor, podpolkovnik N.Abzalova o’z ma’ruzasida shaharda voyaga yetmaganlar va talabalar orasida sodir etilayotgan jinoyatlar, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlari, yoshlar o’rtasida jinoyatchilik, huquqbuzarlik, erta homiladorlik, tajavvuzkorlikni oldini olish bo’yicha bajarilishi lozim bo’lgan vazifalar haqida gapirdi. Bunda har bir talabaning o’z o’rni bor ekanligini, bitta talaba yaxshi xulqi va tarbiyasi bilan jamiyatda jinoyatchilikni oldini olish va kamayishida o’z hissasi borligini ta’kidlab, doimo hushyor bo’lish zarurligini, bugungi jamiyatdagi salbiy ta’sirlar bizdan sergaklikni talab etayotganligini, yoshlar o’rtasida sodir qilinayotgan huquqbuzarliklarni oldini olishi uchun institut ma’muriyatini ogohlantirilishi, yoki ichki ishlar idorasiga xabar berishi, o’z tinchligimizni saqlashdagi eng asosiy vazifalaridan biri ekanligi aytib o’tildi.

Davra suhbati davomida ijtimoiy tarmoqlardan to’gri foydalanish, internet tarmoqlarida yolg`on xabarlar asirasiga tushmaslik, yoki soxta xabarlar tarqatish mamlakatimizda qator qabul qilingan qonunlar asosida javobgarlikka tortilishi haqida ta’kidlab o’tdi. O’qish jarayonida talabalar bir birlariga do’stona munosabatda bo’lishlarini, ko’chada jamoat joylarida o’zlarini tutish odobiga doimo amal qilishlari haqida talabalarga gaprib o’tdi, davrimizning fan va texnika sohasidagi yutuqlari kundalik ijtimoiy hayotimizga yanada qulay imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Biroq ana shu afzalliklar bilan bir qatorda, ayrim salbiy holatlar ham yuzaga kelmoqdaki, bundan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Shulardan biri kiberjinoyatchilikdir. Kiberjinoyatchilik bu kompyuter, kompyuter tarmog’i yoki tarmoq qurilmasidan suiiste’mol qilishga qaratilgan jinoiy faoliyat hisoblanadi. Ularning aksariyati kiberjinoyatchilar yoki xakerlar tomonidan undan noqonuniy daromad orttirish maqsadida sodir etiladi.

Bugun texnologiyalar tobora rivojlanib borgani sari jinoyatchilar ham ulardan foydalanib, noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etayotir. Xususan, odamlar kartochkalaridan pulni o’marish sezilarli darajada oshdi. Tabiiyki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan bu jinoyatchilar aniqlanib, tegishli jazo choralari ko’rilmoqda va jarblanuvchilarga zarar undirib berilmoqda. Ulardan eng ko’p tarqalgani bank plastik kartalari bilan bog'liq. Ular orqali to’lovni amalga oshirish eng qulay usul sifatida tan olingan va amaliyotda keng qo'llaniladi. Plastik karta yo’qolib qolgan taqdirda ham undan hech kimsa foydalana olmasligi mablag’ himoyasi kafolatidir. Yurtimizda ham bu tizimni takomillashtirish, xavfsizlik choralarini ko’rish bo’yicha vakolatli huquq-tartibot hamda bank idoralari bilan hamkorlikda muayyan chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Bilamizki, internet tarmog’ida shubhali manbalar orqali ma’lumot olish, norasmiy ilovalarni yuklab olish, e’lon va elektron manzillarga javob berish imkoniyati cheklab qo’yilgan. Davra suhbati so’ngida talabalar o’zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Buxoro viloyat Kengashi tomonidan Viloyatdagi Oliy ta'lim muassasalaridagi talaba-yoshlar o'rtasida "Quvnoqlar va Zukkolar" ITTIFOQ KUBOGI ko'rik tanlovida Buxoro innovatsion tibbiyot instituti talabalaridan tashkil qilingan "DIMEDROL" jamoasi faxrli I o`rinni egallashdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan amaliyotga tadbiq etilgan 5 ta muhim tashabbus ijrosini ta'minlash, iqtidorli yoshlarni aniqlash va uarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamyatimiz hayotidagi ijtimoiy faolligini oshirish, ulardagi bo'sh vaqtlarni mazmunli tashkil etish va ularga o'z ijodiy salohiyatini hamda iqtidorlarini nomoyon etishlari uchun imkoniyat yaratish, yoshlarda jamyat hayotiga daxldorlik tuyg'usini shakllantirishdan iborat.

Joriy yilning 13-dekabr kuni O'zbekiston yoshlar ittifoqi Buxoro viloyat Kengashi tomonidan Viloyatdagi Oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlar o'rtasida "Quvnoqlar va Zukkolar" ITTIFOQ KUBOGI ko'rik tanlovi tashkil etildi. Tadbirda Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Buxoro viloyat Buxoro shahar bo'linmasi mutaxassislari, Yoshlar ittifoqi Buxoro viloyat Kengashi bo'lim boshlig'i S.Axatov va madaniyat sohasidagi mutaxassislar ishtirok etishdi.

Tanlovda Buxoro viloyatidagi Oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlaridan tashkil topgan quyidagi jamoalar ishtirok etishdi:

1. Buxoro davlat tibbiyot institutining "Tez yordam" jamoasi:
2."TIQXMMI"MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institutining "Irrigator" jamoasi;
3. Buxoro Davlat Universtitetining "Univer" jamoasi;
4. Turon -Zarmed Universtitetining "Orqa parta" jamoasi;
5. Buxoro innovatsion tibbiyot institutining "Dimedirol" jamoasi;

Maqolalar va tezislar

Journal of Advanced Zoology
ISSN: 0253-7214
Volume 44 Issue S-6 Year 2023 Page 289:294

Psychovegetative Changes and Posture Disorders in Tension Headaches

Hatamov Bekzodjon Farkhodovich, Xodjieva Dilbar Tajiyevna

Bukhara Institute of innivation medicine (BITI)

**Corresponding author's: Hatamov Bekzodjon Farkhodovich*

Article History

Received: 06 June 2023
Revised: 05 Sept 2023
Accepted: 24 Nov 2023

CC License
CC-BY-NC-SA 4.0

Abstract

During the year, 50% of adult Europeans suffering from acholia, as well as at least 90%, complain of headaches once in a lifetime without treatment. This disease has been identified by WHO as one of the 10 diseases leading to disability. With headaches, a high rate of disability is associated with several pathologies that are associated with suffocation in patients. We can bring to them ruxy disorders, neck pain, vestibular symptoms and imbalance, as well as cerebral pathologies in migraines. Having complete knowledge about the disease, knowledge of the mechanisms of formation of the pathological process provides the optimal treatment option. The pathogenetic mechanism of tension headaches (zbo), autonomic disorders and posture changes is still being studied and is causing discussion [6].

Keywords: *Headache, Treatment, Causes, Symptoms, Condition.*

1. Introduction

Zbo is a common disease among adults, it affects from 30% to 78% of the population, and this indicator varies around the world [1]. The prevalence among the European population is 60% [5], the indicator is higher among women (in the ratio of 4:5) [5]. The prevalence depends not only on age, but also on race and level of education [6].

Zbo is one of the most urgent problems of modern medicine. According to World Health Data, ZBO is the most common among neurological diseases, ranking 3rd among the causes of disability .In the scientific literature, 85% of the population with this pathology experience periodic headaches, 40% of them experience a decrease in social and labor activity. activity, and it is mentioned as requiring qualified medical care [3]According to Russian cephalologists, the occurrence of zbo is 78% [1.]

It was found that in middle-aged people, episodic tension headaches (EZBO) occur in 18%. Various studies have found that tension headaches (zbo) are observed in a third of the population aged 30 to 39 years. According to the World Health Organization, three quarters of the population aged 18 to 65 years have had at least one headache attack in the last year, while chronic tension headaches are observed in 2-3% of the population. It was found that Zbo occurs 3 times more often in women than in men [18]. Despite the prevalence of headaches in the population, the diagnosis of zbo is made only in 1% of cases at the first consultation with a doctor [8].

While episodic forms of ZBO are not considered a serious medical or social problem, ZBO is accompanied by various concomitant disorders - depression, sleep disorders, somatoform disorders - that distort the patient's daily life and quality of life. The difficulty of choosing an effective treatment brings NWBO to the level of a complex socio-medical problem [2].

Hatamov Bekzod Farxodovich
Buxoro innovatsion tibbiyot instituti
Klinik va klinik oldi fanlar kafedra mudiri

Понятия «сленг»

Камалов Ш.У, студент
(BITI) Бухарский Инновационный Медицинский институт
Министерство высшего образования, науки и инноваций и Министерство здравоохранения
(Узбекистан, г. Бухара)
Kamalov Sh.U, student
(BITI) Bukhara Innovative Medical Institute of the Ministry of Higher Education, Science and Innovation and Ministry of Health (Uzbekistan, Bukhara)

ДИСКУРС «КОНЦЕПТ» МЕДИЦИНСКОГО ПЕРСОНАЛА (работника) В МЕДИЦИНСКОМ СЛЕНГЕ
DISCOURSE "CONCEPT" OF MEDICAL PERSONNEL (employee) IN MEDICAL SLANG

Аннотация.
В данной статье рассматриваются вопросы, касающиеся определения Понятия «сленг», и как он используется в профессиональной речи врачей. Медицинский Сленг — неформальная подсистема медицинского дискурса, которая имеет свои стилистические ограничения. В статье представлено множество примеров медицинских сленгизмов. Данные словообразовательные модели и приемы врачи используют ежедневно. О Том, понятны ли они пациентам или стоит ограничиваться употреблением данных терминов только в кругу сотрудников медицинского учреждения, упомянуто также в статье. Ключевые слова: сленг, медицинский сленг, сленгизмы, просторечный термин, профессиональная речь

Экспериментальное изучение профессиональных подъязыков позволяет определить специфику аксиологической системы, носителями которой являются представители той или
иной профессиональной группы. Официальные ценности группы реализуются в терминологии, карнавальные же – в сниженных пластах языка (жаргонах или сленгах). К числу групп с обширным собственным сленгом относятся медицинские работники.
К сожалению, отечественный медицинский сленг до сих пор не получил системной лексикографической фиксации. В статье представлены предварительные результаты работы по составлению словаря русского медицинского сленга.
Формирование словаря осуществляется путем проведения следующих процедур:
1) методом сплошной выборки из размещенных на Интернет-сайтах наивнолингвистических словарей медицинского сленга получено 124 лексических единицы;
верификация полученного материала путем онлайн опроса и изучении более компетентных научных исследований , изданий профессоров и докторов науки дало нам проанализировать ответы на опросы 90 медицинских работников и позволила выявить дополнительно 242 лексические единицы;
2) исключена общеупотребительная лексика и неверифицированные единицы (14 лексических единиц);
3) сформирован перечень лексических и фразеологических единиц (352 единицы) и на их основе построены тематические поля.
Анализ данных тематических полей позволяет определить аксиологическое ядро концептосферы медицинского сленга, т.е. перечень концептов, обладающих наибольшей номинативной плотностью. Медицинская коммуникация представлена двумя участниками – врачом и пациентом, что находит свое отражение в неформальном медицинском общении: 53,1% слов и выражений относятся к концепту «медицинский работник», 44,3 % – к концепту «пациент». Рассмотрим подробнее концепт «медицинский работник». К указанному концепту отнесены следующие тематические поля: • «процедура/манипуляция» (58,3 %), которое включает слова и выражения, характеризующие выполнение диагностических манипуляций (коронарка/коронашка – 'коронароангиография', поузячить – 'сделать УЗИ кому-то', снять череп – 'сделать рентгеновский снимок черепа'); оперативных вмешательств (вскрыть, чпокнуть –
'прооперировать пациента', кесарить – 'проводить кесарево сечение'; введение лекарственных препаратов (закапать – 'поставить капельницу', кордаронить – 'прокапать кордарон', шлепнуть – 'провести внутримышечную инъекцию'); непосредственно не связанных с лечением больных действий (закодировать пациента – 'написать на истории болезни код диагноза по международной классификации болезней (МКБ)', закопать пациента – ' написать посмертный эпикриз (в условиях реанимации), чаще о тяжелых, хронических больных)', окончательный перевод – 'перевозка умершего пациента в морг', стоять на воротах – 'дежурить по приемному отделению'); консервативного лечения (прохимичить – 'провести химиотерапевтическое лечение онкобольному', уколоть – 'провести сеанс иглорефлексотерапии'); обезболивание (обколоть – 'провести местное обезболивание, блокаду', эпидура, уколоть спину – 'сделать спинальную или эпидуральную анестезию'); прочие манипуляции (качать – ' проводить непрямой массаж сердца',
подвязать – ' зафиксировать пациента в мягких вязках', продуть – 'прочистить аппарат водой/воздухом', раздышать – 'выполнить ингаляцию кислорода/ искусственную вентиляцию легких (ИВЛ)

Принцип моделирования концептов путем построения тематических полей и синонимических рядов будет положен в основу формирования «Словаря русского медицинского сленга».

Virusli gepatit S va uni oldini olish choralari



Hepatis C Virus (HCV)

Virusli gepatit S kasalligi jigar to'qimalarining yallig'lanishi bilan kechuvchi kasalligi bo'lib, uni gepatit S viruslari keltirib chiqaradi. Gepatit S kasalligi uzoq vaqt klinik belgilarsiz kechib, sekin-asta jigar faoliyatini to'liq izdan chiqarishi bilan xarakterlanadi. Shu sababdan tibbiy manbalarda ushbu kasallikni «muloyim qotil» deb ham ataladi. Ko'p holatlarda kasallikning klinik belgilari uzoq muddat namoyon bo'lmaydi va belgilar paydo bo'lgan vaqtda esa, gepatit Sning og'ir shakli yuzaga keladi. Virusli gepatitlarning boshqa turlarida esa odatda kasallik belgilari yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Kasalligini qo'zg'atuvchisi RNK saqlovchi viruslar toifasiga kirib, (lot. Hepacivirus C, HCV) insonlar va shimpanze maymunlarida kasallik keltirib chiqarish xususiyatiga ega. Kasallik qo'zg'atuvchisi 1989 yilda shimpanze maymunlari qonida virusolog olimlar Xarvi Olter, Charlz Rays va Maykl Xauton tomonidan aniqlangan.

Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, virusli gepatit S bilan 70 milliondan ortiq kishi kasallangan. Ushbu kasallik asoratlaridan yiliga 400 mingga yaqin inson vafot etishi qayd etilgan. Bugungi kunda gepatit S jigar raki rivojlanishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Virusli gepatit S yuqish yo'llari



Gepatit S virusi qon orqali yuqadi. Bundan tashqari, zararlanish kundalik turmushda ham sodir bo'lishi mumkin. Masalan, sartaroshxonalarda, kosmetologiyada manikyur jarayonida ishlatilgan asboblarni yetarlicha sterillamaslik, bir martalik uskunalardan foydalanmaslik oqibatida noxush holatni kelib chiqishi ehtimoli yuqori.

Infeksiya yuqtirgan kishi dastlabki davrda hech qanday klinik belgilarni sezmaydi. Virus jigarni deyarli sezdirmagan holatda qamrab oladi. Aynan shu sababli gepatit S ning surunkali turi bilan og'ruvchi bemorlarning 50 %da kasallikdan shikoyat bo'lmaydi.

Gepatit S asoratlarining kelib chiqishi

Jigar faoliyatining surunkali buzilishi rivojlanishi	60 - 70%
Jigar sirozi	10- 20 %
Jigar yetishmovchiligi	3- 6%
Jigar raki	1-5%

AQSh kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish tashkiloti ma'lumoti asosida.

Infeksiya yuqtirgan kishilarning 15-25 %da kasallikning o'z-o'zidan tezalishi kuzatiladi.

Virusli gepatit S ning o'tkir va surunkali davri mavjud. O'tkir davri virus yuqtirib olingandan so'ng 1-6 oydan keyin boshlanadi. Ushbu davrda gepatit S virusi jadallik bilan ko'payadi. Klinik belgilar 2 - 12 haftagacha davom etishi mumkin.



(davomi 15-betda)

Umumiy kasallanganlarning 80 % gepatit S ning o‘tkir davrida klinik belgilarsiz kechsada jigar to‘qimalarida qaytarib bo‘lmaydigan organik o‘zgarishlar bilan kechadi. Ko‘p hollarda odatiy holsizlik bilan kechgani sababli shamollash yoki kuchli toliqish deb taxmin qilinishi mumkin.

Gepatit S ning o‘tkir davrida klinik belgilar

Yuqoridagi belgilar turlicha vaqtda kuzatilishi mumkin. Ushbu belgilar shamollash belgilari bilan birga kuzatilganda, gepatit Sning simptomlari umuman sezilmasligi mumkin. O‘tkir davri yakunlangach, surunkali shaklga o‘tishi mumkin.

Gepatit S ning surunkali davrida klinik belgilarni

Surunkali davr uzoq vaqt (10 yilgacha) simptomsiz kechishi mumkin. Gepatit Sni bu davrida aniqlash yanada qiyinlashadi. Surunkali davrda bir necha qo‘shimcha belgilar paydo bo‘ladi:

- **Oson paydo bo‘luvchi ko‘karishlar.**
- **Qon ketishi. Kichik jarohatlardan uzoq vaqt qon oqishin.**
- **Sababi noma’lum bo‘lgan qichishish va toshmalar yuzaga kelishi. Aksariyat hollarda yelka-bel, ko‘krak sohalarida, qo‘llarda paydo bo‘ladi.**
- **Oyoqlarning tez-tez shishishi.**
- **Tana vazni ozib ketishi.**
- **Teri ostida paydo bo‘luvchi qon tomirlarining to‘planib qolishi. O‘rgimchak angiomasi.**

Yuqoridagi belgilarning 2-3tasini bir vaqtda kuzatilishi gepatit Sga chuqurlashtirilgan tibbiy tekshiruvdan o‘tish kerakligini bildiradi.

Tashhislash. Gepatit Sni qon tahlili, jigar sinamalari va qorin bo‘shlig‘i organlarining ultra tovush tekshiruvi orqali tashxislash mumkin. Bunda virusologik tekshiruvlar, gepatit viruslariga qarshi antitelani aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Davolash. Bugungi kunda zamonaviy tibbiyot virusli gepatit Sning erta davrlarida to‘liq davolash ikoniyatini beradi. Davolash kursini jigarni tiklab bo‘lmaydigan o‘zgarishlarga yuz tutguncha imkon qadar barvaqt boshlash muhim ahamiyatga ega. Davolash maqsadida Sofosbuvir (Sofosbuvir) 400 mg preparatidan keng foydalanilmoqda.

(davomi 16-betda)

Davolashni muhim bo‘g‘imi sifatida jigar faoliyatini qo‘llab quvvatlovchi davo choralari, parxezga rioya etish va jismoniy zo‘riqishni cheklash asosiy o‘rin tutadi.

Ilmiy manbalarda 90 % bemorlar bir necha oy davom etuvchi dori-darmonlar qabulidan so‘ng salomatligini tiklab olishlari tasdiqlangan.

Profilaktikasi. Hazirgi davrda virusli gepatit Sga qarshi spesifik vaksina ishlab chiqilmagan. Kasallik profilaktikasida sog‘lom turmush tarziga rioya etish muhim o‘rin tutadi. Virus qon orqali yuqishini inobatga olib, bemor qoni bilan muloqot bo‘lishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy holatlarni oldini olish zarur. Tibbiyot xodimlari muolaja vaqtida tibbiy avariyalarga yo‘l quymasliklari talab etiladi. Shuningdek, tibbiy chiqindilarni o‘rnatilgan tartibda zararsizlantirish asosiy o‘rin tutadi. Sartaroshxonalar, kosmetologiya xizmatidan foydalanishda sanitariya qoidalariga qat’iy rioya etilishini ta’minlash muhim hamiyatga ega.

Shu o‘rinda gepatit S ovqat, suv, ko‘krak suti, so‘zlashuv, quchoqlashish, o‘pishish, bir idishdan foydalanish, chivinlar va boshqa hasharotlar orqali yuqmasligini ta’kidlab o‘tish joiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 16 maydagi “Ayrim dolzarb virusli infeksiyalar tarqalishiga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish to‘g‘risida” PQ-243 sonli qarori va Sog‘liqni saqlash vaziriligining 2023 yil 1 maydagi “Aholi orasida virusli gepatitning V va S turlarini erta aniqlash va davolash tadbirlarini amalga oshirish to‘g‘risida”gi 95-sonli buyrug‘i asosida mamlakatimizda virusli gepatitlarni oldini olish, barvaqt tashxislash va davolash bo‘yicha kompleks chora –tadbirlar olib borilmoqda.



Jumladan, 2023 yil davomida 500 ming aholi gepatitning V va S turlariga skrining tekshiruvidan o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan. Skrining tekshiruvlari

18 yoshdan katta bo‘lgan, gepatitning V va S turlari bilan dispanser nazoratida bo‘lmagan kishilarda o‘tkazilmoqda. Tekshiruvlarda musbat natija aniqlangan kishilar to‘g‘risidagi axborotlar yagona ma’lumotlar bazasiga kiritilmoqda.



Virusli gepatitning V va S turi musbat aniqlangan holatlarda hududiy sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tomonidan epidemiologik surushtiruvlar olib borilib, profilaktik tadbirlar tashkil etilmoqda.

Hududlarda, Gepatologiya markazlari orqali Gepatit V va S aniqlangan bemorlarga dori vositalari yetkazib berilmoqda. Ushbu tadbirlarni sifatli bajarilishi kasallikni erta aniqlash, tarqalishini oldini olish hamda asoratsiz davolash bo‘yicha tizimli ishlarni yo‘lga quyishga zamin yaratmoqda.

Rizoyev Kamoljon
Buxoro viloyati
sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi

VR ko'zoynaklarining tibbiyotda tutgan o'rni

Ko'p yillar davomida virtual haqiqat (VR - Virtual Reality) ning ajoyib tushunchasi faqat ilmiy-fantastik adabiyotlarda va filmlarda eslatib o'tilgan, chunki to'liq immersiv tajribani ta'minlash uchun hech qanday vosita yo'q edi. Grafika, tovush va fizika nuqtai nazaridan 3D muhitning qoniqarli sifatini ta'minlash nisbatan yaqinda paydo bo'lgan ilg'or hisoblash, audio va video texnologiyalarini talab qilardi. O'shanda ham VR ko'zoynaklaridan foydalanish asosan ko'ngilochar industriya yoki harbiy dasturlar bilan cheklangan. XXI asrga kelibgina virtual haqiqat texnologiyasi ixcham, qulay va arzonroq qurilmalar yordamida ishonchli virtual olamlarni taqdim etish uchun yetarli darajada rivojlandi. Hozirgi kunda foydalanuvchilar uchun virtual olam imkoniyatlarini beruvchi top 10 talik kompaniyalar qatori misol sifatida berilgan.

1. Magic Leap; 2. Meta; 3. Microsoft; 4. Apple; 5. Google; 6. Niantic; 7. Unity Technologies; 8. HTC; 9. Sony Interactive Entertainment; 10. Nvidia.

Natijada, virtual va kengaytirilgan haqiqat tushunchalari turli sohalarda yangi amaliy qo'llanmalarni topdi va ulardan biri tibbiyot sohasida VR ko'zoynaklaridan foydalanishdir.

Tibbiyotda VR ko'zoynaklarining qo'llanilishi:

1. Ta'lim maqsadlari;
2. Jarrohlik mashg'ulotlari;
3. Stomatologiya;
4. Operatsion rejalashtirish va "test sinovlari";
5. Bemorni xabardor qilish va maslahat berish;
6. Altsgeymer bilan og'rigan bemorlarga yordam berish;
7. Harakatlanish qobiliyatining buzilishi;
8. Stress, qo'rquv va komplekslarni yengish;
9. Bemorning chalg'itishi;
10. Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish;

1. Ta'lim maqsadlari. VRning eng keng tarqalgan qo'llanilishidan biri nazariy va amaliy ta'lim maqsadlaridadir. Modellashtirilgan diqqatga sazovor joylar bo'ylab virtual sayr qiladigan sayyohlarga o'xshab, tibbiyot talabalari inson tanasi tizimlari bo'ylab uning ichkaridan qanday ishlashini ko'rish uchun virtual sayohat qilishadi. Misol uchun, tibbiyot maktablari o'rganish uchun ko'rgazma sifatida organlarni bankalarda saqlash o'rniga, o'zlarining qulayroq va illyustrativ bo'lgan yuqori aniqlikdagi 3D modellarini taklif qilishlari mumkin.Amaliy ko'nikmalarga kelsak, VR moslashtirilgan muhit va stsenariylarni yaratishga imkon beradi, masalan, real va ixtiyoriy stressli sharoitlarda feldsherni tayyorlash uchun. Ushbu texnologiya turli xil tibbiy asboblar va asboblar bilan ishlashni o'rganishda ham yordam berishi mumkin, chunki bu ularni xavfsiz virtual dunyoda ishlatishga imkon beradi. Va nihoyat, virtual reallik qurilmalari o'lik jasadlardan ko'rgazmali qurol sifatida an'anaviy foydalanishni kamaytiradi yoki butunlay yo'q qiladi.

2. Jarrohlik mashg'ulotlari. Virtual haqiqat amaliy ko'nikmalarni katta xarajatlarni tejaydigan, lekin haqiqiy hayot oqibatlariga duch kelmasdan amalga oshirish imkonini beradi. Bu jarrohlik kabi yuqori xavfli faoliyat uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni mashq qilish uchun VRni bebaho qiladi. Virtual bemorda operatsiya paytida xatolik hech kimning hayotiga zarar etkazmaydi yoki o'limga olib kelmaydi, balki real tasvirlar va fikr-mulohazalar tufayli talaba uchun foydali o'rganish tajribasini beradi. Shunday qilib, masalan, OssoVR kabi ixtisoslashtirilgan VR o'quv platformalari ko'nikmalarni oshirish va xatolardan saboq olish uchun sozlanishi sozlamalar va oldindan o'rnatilgan stsenariylarga ega turli xil jarrohlik muolajalarini tez-tez va muntazam ravishda amalga oshirish imkonini beradi.

(davomi 20-betda)

3. Stomatologiya. Jarrohlar singari, stomatologlar ham tibbiy virtual haqiqat qurilmalari tomonidan taqdim etilgan afzalliklardan foydalanadilar. Ular virtual bemorlarda yoki hatto tishlarning 3D modellarida real hayotdagi taktil mulohazalarni taqlid qilish uchun tuzilgan maxsus matkaplar yordamida o'z mahoratlarini mashq qilishlari mumkin. Bunday virtual stomatologik o'qitish tizimining namunasi hapTEL deb ataladi va 2010 yilda plastik tishli manekenlarni o'z ichiga olgan an'anaviy usul o'rniga ilg'or o'rganish usuli sifatida taqdim etilgan. Jarrohlar singari, stomatologlar ham tibbiy virtual haqiqat qurilmalari tomonidan taqdim etilgan afzalliklardan foydalanadilar. Ular virtual bemorlarda yoki hatto tishlarning 3D modellarida real hayotdagi taktil mulohazalarni taqlid qilish uchun tuzilgan maxsus matkaplar yordamida o'z mahoratlarini mashq qilishlari mumkin. Bunday virtual stomatologik o'qitish tizimining namunasi hapTEL deb ataladi va 2010 yilda plastik tishli manekenlarni o'z ichiga olgan an'anaviy usul o'rniga ilg'or o'rganish usuli sifatida taqdim etilgan.

4. Operatsion rejalashtirish va "test sinovlari". VR texnologiyasi tomonidan taqdim etilgan uch o'lchovli modellar murakkab operatsiyalardan oldingi tayyorgarlik bosqichlarida bebaho ekanligini isbotladi. Kompyuter tomografiyasiga asoslangan 3D tasvirlardan foydalangan holda, jarrohlar bemorlarning organlari yoki organlarining aniq modellarini oladilar, masalan, o'smalar va uning atrofidagi to'qimalarning uch o'lchovli vizualizatsiyasi. Shifokorlar ushbu modellarni turli burchaklar, tasavvurlar yoki kesilgan ko'rinishlardan tekshirishlari va kelajakdagi operatsiyalarning mumkin bo'lgan stsenariylarini rejalashtirishlari mumkin. Ular hatto jonli bemorlarda haqiqiy skalpellardan foydalanishdan oldin jarayon bosqichlarining optimal ketma-ketligini hisoblash va sinab ko'rish uchun virtual operatsiya xonalarida operatsiyalarni mashq qilishlari mumkin.

6. Altsgeymer bilan og'rigan bemorlarga yordam berish. Olimlar allaqachon Altsgeymer kasalligini tashxislash va uning alomatlarini yengillashtirish uchun VR ning ijobiy ta'sirini isbotladilar. Misol uchun, Kembrij universiteti tadqiqotchilari Altsgeymer kasalligining dastlabki bosqichiga chalingan bemorlarni aniqlash uchun virtual haqiqatdan foydalanadigan va an'anaviy kognitiv baholashdan ko'ra ishonchliroq bo'lgan navigatsiya testini ishlab chiqdi va amalga oshirdi. "The Wayback" deb nomlangan innovatsion loyihadan biri demans oqibatlariga qarshi kurashish va bemorlar va ularning oilalari yoki qaramog'idagilar o'rtasidagi aloqani yaxshilash uchun bemorlarda qimmatli xotiralarni qo'zg'atishga va suhbatlarni rag'batlantirishga qaratilgan.

7. Harakatlanish qobiliyatining buzilishi. Ko'p turdagi kasalliklar va travmalar miya, oyoq-qo'llar, asab tizimining jiddiy shikastlanishiga olib kelishi mumkin, bu esa o'z navbatida vosita qobiliyatlarini yomonlashishiga yoki hatto yo'qolishiga olib keladi. Ushbu ko'nikmalarni tiklash uchun keng reabilitatsiya davri talab etiladi va virtual haqiqatdan foydalanish foyda keltirishi mumkin. Masalan, MindMaze insultga chalingan bemorlarga o'z tanalarini nazorat qilishni tiklashga yordam berish uchun VR-dan foydalanadi. Virtual haqiqat Parkinson kasalligi bilan og'rigan bemorlarga muvozanat ko'nikmalarini yaxshilashda yordam berishda ham o'z samaradorligini isbotladi.

8. Stress, qo'rquv va komplekslarni yengish. Virtual haqiqat psixoterapiyada turli fobiyalar va boshqa ruhiy salomatlik holatlarini davolash usuli sifatida samarali qo'llanilishi mumkin. Texnologiya shifokorlarga nazorat qilinadigan muhitni yaratishga va bemorlarni qo'rquvni engishga va ishonchni qozonishga o'rgatish uchun har bir alohida holat uchun alohida o'rnatilgan noqulay sharoitlarga qo'yish imkonini beradi. Bunday tarzda davolash mumkin bo'lgan fobiyalarning bir nechta misollari ochiq yoki cheklangan joylardan qo'rqish, turli xil tirik mavjudotlardan qo'rqish, sahna qo'rquvi, balandlik yoki suv qo'rquvi va boshqalar.

9. Bemorni chalg'itishi. Tibbiy VR bemorlarning og'rig'i va noqulayligini yengillashtirish bilan bog'liq bir nechta shunga o'xshash foydalanishga ega bo'lgan samarali chalg'ituvchi sifatida yana bir dasturni topdi. Tadqiqotchilar bemorlarning diqqatini virtual muhitga o'zgartirish orqali surunkali og'riqni davolashda VR samaradorligini isbotladilar. Bunday amalga oshirishning bir misoli yuqorida aytib o'tilgan Applied VR kompaniyasi tomonidan yaratilgan Pain RelieVR dasturidir.

10. Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish. Virtual haqiqatning ajoyib vizual ta'siridan odamlarga, ayniqsa yoshlarga chekish, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish, noto'g'ri ovqatlanish, harakatsiz turmush tarzi va boshqalar kabi odatlarning zararli ta'siri haqida ma'lumot berish uchun foydalanish mumkin. Tasviriy 3D modellar inson tanasining bunday odatlar ta'sirida asta-sekin o'zgarishi va zararni to'liq yoki qisman tiklash uchun qancha vaqt ketishini ko'rsatishi mumkin. Bunday vizualizatsiya sog'lom hayotni targ'ib qilish va odamlarni juda kech bo'lmasdan o'z hayotlarini o'zgartirishga undashning tushunarli va mos usulini taqdim etadi.

Tibbiyotda va xususan jarrohlikda virtual haqiqatdan foydalanishning sanab o'tilgan misollariga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu texnologiya kelajakda yanada ko'proq sohalarni qamrab olishi aniq. Hatto hozirgi holatda ham VR va AR shifokorlarga hayotni saqlab qolishda yordam beradigan ko'plab imtiyozlarni taklif qiladi. Ular, shuningdek, og'ir miya buzilishlari (severe motor disorders), demans yoki boshqa psixologik sharoitlarga ega bo'lgan bemorlar uchun hayot sifatini yaxshilashni ta'minlaydi.

An'anaga ko'ra, tibbiyot talabalari shogirdlik modeli bo'yicha jarrohlik ta'lim oladilar, ular bir necha yil davomida rais jarroh rahbarligida kuzatuv o'tkazadilar. Jarayon uzoq va sub'ektiv bo'lib, jarrohlik malakasining standartlashtirilgan ko'rsatkichi yo'q. Bundan tashqari, so'nggi paytlarda majburiy ish soatlarining maksimal darajalari va bemorlarni operatsiya qilish qoidalarining kuchaytirilishi jarayonni uzaytirdi. Va o'quv jarayoni qimmat, chunki u mashaqqatli, jasadlar va har foydalanishdan keyin almashtirishni talab qiladigan qimmatbaho hayvonlar modellarini talab qiladi.

Artroskopik tizza jarrohligi

Muxtasar qilib aytganda, VR ko'zoynaklari bo'lajak jarrohlarga an'anaviy o'qitish usullari bilan solishtirganda texnik aniqlik va malakani xavfsiz oshirishi mumkin bo'lgan interfaol vosita bilan ta'minlaydi. Misol sifatida, bugungi kunda Buxoro Innovatsion Tibbiyot Institutining Davolash ishi va Stomatologiya fakulteti talabalari uchun o'quv jarayonini samarali tashkillashtirish maqsadida VR ko'zoynaklaridan foydalanmoqda.

Boboqulova Dildora
Buxoro innovatsion tibbiyot instituti assistenti

STOMATOLOGIYA

Stomatologiya (yunoncha. „Stomatos“ — og‘iz va „logos“ — fan, ta’limot) — klinik tibbiyotning bir sohasi; og‘iz bo‘shlig‘i a’zolari: til, lab, lunj, og‘iz shilliq pardalari hamda yuz-jag‘ tizimi va unga yondosh soha kasalliklarini, ularni keltirib chiqaradigan sabablarni va mazkur kasalliklarning oldini olish usullarini o‘rganadi.

Bu sohada Hakimov Nodirbek birinchilardan bo‘lib ilmiy hamda amaliy ishlarni amalga oshirgan.

Og‘iz bo‘shlig‘i a’zolari kasalliklari Gippokrat, Ibn Sino, Galen, Sels va boshqa olimlar tomonidan tavsiflangan. Ibn Sino asarlarida ilk bor tishlar qamashishi va og‘riqlarining tabiati bayon etilib, shunday hollarda nimalardan foydalanish ko‘rsatilgan. 14-asrda fransuz vrachi Gide Sholiak tish sug‘uradigan asbob ixtiro qildi. 15-asr oxirida italyan vrachi J. D. Arkale tishni oltin, qo‘rg‘oshin va qalay folgasi bilan plombalash mumkinligini ko‘rsatadi. 17-18-asrlarga kelib stomatologiya klinik tibbiyotning mustaqil sohasiga aylandi. 19-asrda tishni plombalash va yasama tishlar tayyorlash texnikasi puxta ishlab chiqildi.

19-asr oxiri -20-asrning birinchi yarmida fiziologiya, anatomiya, patologiya, biokimyo va boshqa fanlarning taraqqiyoti stomatologik kasalliklar etiologiyasi, patogenezi, davolash choralari va profilaktika tadbirlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekistonda stomatologiya fani 1954-yildan shakllandi, shu yili ToshTI (hozirgi Toshkent Davlat Stomatologiya Instituti)da stomatologiya fakulteti ochildi. 1956-yilda maxsus stomatologik kafedralar tashkil etildi. Keyinchalik bunday kafedralar Samarqand, Andijon tibbiyot institutlarida, Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutida ham ochildi, 1994-yilda Buxoro Davlat Tibbiyot instituti tashkil etilib, uning tarkibida stomatologiya fakultetining ochilishi stomatologiya fanining yanada ravnaq topishiga zamin yaratdi.

O‘zbekistonda stomatologiya fani rivojiga A. G. G‘ulomov, M. V. Paradoksov, A. T. Busigin, M. V. Busigina, shuningdek, V. A. Yepishev, S. A. Zufarov, M. M. Miryoqubov, E. U. Mahkamov, T. X. Safarov, M. V. Begmetov, M. I. Azimov, R. K. Yakubov, R. A. Amanullaev, A. A. Akbarov va boshqalar katta hissa qo‘shganlar.

Hozirgi zamon stomatologiya fani terapevtik, jarrohlik, ortopedik, bolalar stomatologiyasi, ortodontiya va yuz-jag‘ jarrohligi kabi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi. Terapevtik stomatologiya tish (kariyes, pulpit, periodontit, nokariyes xastaliklar) hamda og‘iz shilliq qavati, lab, til kasalliklari diagnostikasi, davosi va profilaktikasi bilan shug‘ullanadi. Jarrohlik stomatologiyasi tish olishdan tashqari yuz-jag‘ va unga qo‘shni sohalardagi yallig‘lanishlar, o‘smalar, shikastlanishlar, tug‘ma va orttirilgan nuqsonlarni o‘rganadi, og‘iz bo‘shlig‘i va yuz-jag‘ operatsiyalari, plastik operatsiyalarni amalga oshiradi. Ortopedik stomatologiya ortopedik va ortodontik usullar bilan birlamchi va ikkilamchi tishlar qatori hamda tug‘ma va orttirilgan tishlar nuqsonlarini davolaydi, yasama tishlar bilan tish qatori nuqsonlarini tiklaydi. Bolalar stomatologiyasi bola rivojlanishining turli davrlarida o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda terapevtik, jarrohlik, ortopedik stomatologik yordam ko‘rsatadi. Shu bilan birga stomatologik kasalliklarning kompleks profilaktikasi chora-tadbirlarini ishlab chiqadi.

(davomi 22-betda)

JARROHLIK STOMATOLOGIYASI

ORTOPEDIK STOMATOLOGIYA

ORTODONTIK STOMATOLOGIYA

TERAPEVTIK STOMATOLOGIYA

BOLALAR STOMATOLOGIYASI

YUZ JAG' JARROHLIGI

Stomatologik kasalliklarni davolashda turli dori-darmonlar, lazer va infraqizil nur, ultratovush, fizioterapiya usullari va h.k. dan foydalaniladi.

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti 1-kurs stomatologiya fakulteti 4S23-guruh sardori Baxodurov Botirxon Nodirovich

Xalq orasida jigar sirrozi

Annotatsiya. Jigar sirrozida jigar hujayralari gepatotsitlar funksiyasining buzulishi ya'ni gepatotsitlar o'rniga biriktiruvchi to'qimaning paydo bo'lishi.Jigar sirrozi turlicha nomoyon bo'ladi va u xastalikning qaysi shaklida kechishi hamda davriga bog'liq.Xalq orasida ko'pincha spirtli ichimliklarni surunkali qabul qilgan kishilarda jigar sirrozi uchraydi deb oylashadi.Aslida bu kassalik boshqa insonlarda ham kuzatilishi mumkin.Jigarning barcha surunkali kasalliklarining oxirigi bosqichi bu sirrozdir.Bu xastalikni turli davo yo'llari orqali sekinlashtirish mumkin lekin songi bosqichida albatta jigar ko'chirib o'tkazish kerak.

Kalit so'z. Detoksikatsiya, gepatotsitlar, xolestaz, postnekrotik, bilirubin

Kirish. Jigar organizmdagi eng yirik bez,o'ng qovurg'alar yoyi ostida joylashgan.Jigarda ikki bo'lak mavjud chap hamda o'ng bo'laklar.Asosan chap bo'lagining ahamiyati-transplantalogiya soxasida foydalaniladi.Donordan chap bo'lagi olinadi va qabul qiluvchiga o'tkaziladi.Chap bo'lak tez regineratsiya qilish xususiyatiga ega bo'ladi.Organizmimizda jigarning asosiy funksiyalari mavjud:

-Metabolizm (katabolizm,anabalizm)

-Jamg'arish (uglevodlar hamda yog'larni)

-Detoksikatsiya (organizmga tushgan toksik moddalarni parchalash)

Jigar sirrozida jigar hujayralari gepatotsitlar funksiyasining buzulishi ya'ni gepatotsitlar o'rniga biriktiruvchi to'qimaning paydo bo'lishi natijasida uning chandiqlanishi va natijada barcha a'zolar faoliyati izdan chiqadi.Jigar sirrozi ko'proq erkaklarda uchraydi.Spirtli ichimliklar,toksik ta'sirga ega bo'lgan dori vositalari,moddalar almashinuvining buzilishi,gepatoz(jigarning yog' qoplashi),kam miqdorda irsiy moyillik,infeksiyalar (B vaC gepatit viruslari),ovqat tarkibida oqsillar va vitaminlarning yetishmasligi,xolestaz jarayoni va boshqalarni misol qilsak bo'ladi.Jigarning portal sirrozi ko'proq 40-60 yosh oralig'ida,boya aytib o'tganimdik asosan erkaklarda ayollarga nisbatan ikki barobar ko'proq uchraydi.Ayollarda esa asosan postnekrotik va biliar sirrozlar uchraydi.Simptomlari sirroz bosqichiga bog'liq.12% hollarda sirroz belgilarsiz kechadi.Sirrozni boshlang'ich davrida simptomlar bermaydi.Keyingi bosqichida esa assit,ishtaxasizlik,ozib ketish, tasirchanglik, burun va milklarning qonashi,sariqlik,terida qichishish,qorin sohasida og'riq va boshqalar.Jigarning zararlanish darajasi to'rtgacha baholanadi. Nol sog'lom jigar, to'rt jigar sirrozi hisoblanadi.Serroz vaqtida jigar komasi kuzatilishi mumkin,bunda bemor bir necha soatdan bir necha kungacha bexush bo'ladi.Sirroz davrida qizilo'ngachning kengaygan vena qon tomirlaridan qon ketishi ham kuzatiladi.Jigar saratoniga ham olib keladi.Sirrozning boshqa shakllarida assit kasallikning kechki bosqichlarida rivojlanadi.Odatda jigar qattiq, yuzasi notekis, pastki qirrasi o'tkir.Taloqning kattalishishi uning faoliyati kuchayishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida, leykotsitopeniya,trombotsitopeniya va kamqonlikka olib keladi.Zardobdagi bilirubin miqdori faqat kasallikning kechki bosqichlarida yuqori ko'rsatkichlarga chiqishi hamda bog'langan ya'ni konyugirlangan bilirubin umumiy bilirubin ko'rsatkichlari me'yorida bo'lganda ham oshishi yoki kamayishi kuzatiladi.Siydikda ko'p miqdorda urobilinning bo'lishi jigar yetishmovchiligida muhim ko'rsatkichlardan biri.Urobilinni siydikdagi va sterkobilinni najasdagi miqdorining kamayishi asosan sariqlik bo'lganda va bilirubinning bir qismi ichakka tushganda kuzatishimiz mumkin.Jigar sirrozini davolash eng avvalo bemorni alkogol,toksik moddalar va gepatotsitlarga salbiy ta'sir qiladigan jarayonlarni oldini olish.Dori vositalari yordamida davo choralarini ko'rganimizda qat'iy kun tartibi va parhez ovqatlanishga amal qilgan holda davo choralarini ko'ramiz.

Natija. Jigar sirrozida asosan kasallik faollik davrida umumiy qon tahlilida kamqonlik,leykopeniya,ko'p hollarda retikulotsitoz,ECHTning oshishi kuzatiladi.Bilirubin miqdori ko'proq kasallikning kechki bosqichlarida yuqori darajaga chiqadi.Kuzatishlarim natijasida bemorlarda quyidagi belgilar yuzaga chiqdi:ishtaxasizlik,ozib ketish,terida qichish,kamqonlik,ko'ngil aynishi,qusish va ba'zi hollarda isitma.

Xulosa. Biz ora orada ummumiy shifokor ko'rigidan o'tib turishimiz kerak.Bizda tepada keltirib o'tilgan belgilardan qaysi biridir kuzatilsa darhol shifokorga murojat qilish kerakligi hamda laborator-asbobiy tekshirishlardan o'tishimiz lozim.Azizlar,qadrdonlarim o'z sog'lig'imizga befarq bo'lmaylik!

Adabiyot.D.B.Tursunov, F.A Abdurahmonova fiziologiya asoslari, A.G.Gadayev, M.SH. Karimov, X.S. Axmedov 2021-Toshkent Ichki kasalliklar propedevtikasi.

Buxoro Innovatsion Tibbiyot Instituti talabasi
Kamoljonova Go'zal Odiljon qizi

Olamga chaqiriq: OITS dan saqlanaylik!

Orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi tushunchasi barchaga anchagina tanish bo'lib ulgurgan. Bu borada aholimiz orasida amalga oshiralayotgan keng ko'lamdagi tushuntirish ishlari atroflicha profilaktikani to'g'ri yo'lga qo'yishda alohida ahamiyatli. Garchi O'zbekiston fuqarolarida bu haqida yetarli tasavvur paydo bo'lib, kasallikka qarshi "immunitet" shakllanganiga qaramay hali hanuz kasallanishlar qayd etilayotgani odamni tashvishga soladi.

Avvalo kasallikning patogen qo'zg'atuvchisi, klinikasi, organizmda kechish sur'atlari haqida yana bilimlarni boyitish bugungi "Ogohlik—davr talabi" bo'lgan zamonda zarar qilmaydi.

OITS ning qo'zg'atuvchisi retroviruslar oilasiga mansub virus vakili hisoblanadi. Kasallik ikki OIV infeksiyasi va bevosita OITS davridan iborat. Dastlabki davri garchi organizmda qo'zg'atuvchi bo'lsada, kasallik simptomlarining namoyon bo'lmasligi bilan bir muncha murakkab holat paydo qiladi. Virus odamning immunitet tizimiga tanlab ta’sir ko'rsatishi bilan xarakterli, ayniqsa, SD4+ immun hujayralarini yoppasiga "qirib yuboradi". Kasallangan odamda ikki-uch kundan so‘ng, 25—30% hollarda birlamchi infeksiya davriga xos alomatlar kuzatiladi. Bunda tana haroratining ko'tarilishi, tunda terlash, bo‘g‘imlar sohasida og'riq, loxaslik, qayt qilish, diareya, toshmalar paydo bo‘lishi mumkin. Simptomatik davr hatto sakkiz–o'n yillargacha, ba’zan undan ham uzoq davom etadi. Hozirgi kunda amaliyotda OIV infeksiyasi tashhisini qo‘yish qonda kasallik virusiga qarshi paydo bo‘lgan antitelolarni aniqlash — immun ferment taxlili (IFT) reaksiyasiga asoslangan. Amaliyotda odamga ushbu infeksiya tushganligi to‘g‘risida 90 kun o‘tkazib olingan tekshirish natijasiga qarab xulosa chiqariladi.

Ikkinchi davr infeksiyaning yakunlanishi bo'lib, qo'zg'atuvchi bilan makroorganizm o'rtasida uzoq kurashning kechishi va oxir oqibatda virusning "g'olibligi" bilan tugallanadi. Natijada, organizm har qanday infeksiyalar uchun "ochiq darvoza"ga aylanadi. Jumladan, respirator, me’da–ichak, siydik–tanosil yo‘llarida doimo mavjud bo‘lgan va kasallik qo‘zg‘ata olmaydigan mikroorganizmlar ham faollashib, turli xastaliklarni keltirib chiqaradi.

Kasallik virusi infeksiya yuqqan odamning qonida, sperma suyuqligi, ayollarning jinsiy a’zolari ekskratlari va ko‘krak suti tarkibida bo‘ladi. Shuning uchun OITV, asosan, uch xil yo‘l bilan: qon orqali, jinsiy aloqa va infeksiya yuqqan onadan homilasiga vertikal yo‘l bilan yuqadi. OITS bilan og‘riganlarning ko‘pchiligini giyoxvandlar, fohishalar, gomo- va biseksuallar tashkil etadi. OITS organizmga jinsiy aloqa, parenteral muolajalar (nosteril igna, shprits va boshqa tibbiy anjomlar ishlatilganda), inifitsirlangan qon va uning o‘rnini bosuvchi dorilarni qo‘llash, a’zo va to‘qimalarni ko‘chirib o‘tkazish (transplantatsiya) vaqtida, shuningdek, virusni yuqtirib olgan onadan homilaga homiladorlik davrida, tug‘ish jarayonida va go‘dak emiziladigan bo‘lsa, ko‘krak suti bilan yuqib qolishi mumkin.



O‘zbekistonda OIV/OITS bilan bog‘liq masalalar Sog‘liqni saqlash vazirligining OIV/OITS xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Bndan tashqari laborator tekshiruv olib boriladigan ishonch punklari ham barcha hududlarda faoliyat olib bormoqda.

Ushbu infeksiya keng tarqalgan kasalliklardan biri bo‘lgani uchun muhofaza tadbirlari ijtimoiy hayotning barcha soha vakillari ishtirokida olib borilishi lozim. Har bir yigit-qiz bu infeksiyaning tarqalish yo‘llari, uning oldini oladigan tadbirlardan xabardor bo‘lishi va o‘zining xavfsizligiga avvalo o'zi javobgar ekanligini hech qachon unutmasligi lozim.

Hudoynazarov Fayyozbek Mahammadjon o'g'li
Buxoro innovatsion tibbiyot instituti ta'sischi grandi sohibi, 2-bosqich talabasi

Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklari. Bolalarda stomatit



Stomatologiya amaliyotida «Stomatit» atamasi og'iz bo'shlig' shilliq qavati rang - barang kasalliklarning umumlashgan tushunchasi bo'lib aniq bir kasallikni aynan bildirmaydi. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati hazm qilish sistemasining boshlang'ich sohasi bo'lganligi sababli , bola tug'ilishi bilanoq turli mahalliy ta'sirotlar ta'siriga uchraydi. Bundan tashqari o'zining vazifalarini bajarish bilan birgalikda organizmda kechayotgan umumiy noxush jarayonlarning belgilarini ham o'zida aks ettiradi. Bunday holat og'iz bo'shlig'i shilliq qavati organizm ichki dunyosining oynasi deb baxolash ko'p hollarda tan olingan. Bugungi kunda bolalik davrida eng keng tarqalgan infeksion kasallik – o'tkir gerpetik stomatit hisoblanadi. Bu holat rivojlanayotgan organizmda immun tizimining shakillanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan ham izohlanadi. Dunyo aholisining 1/3 qismi gerpetik infeksiya bilan zararlangan bo'lib va bu bemorlarning yarmidan ko'pi infeksiyaning bir necha xujumlari, shu jumladan tez – tez og'iz bo'shlig'idagi namoyon bo'lishlari bilan uchraydi 6 oylikdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarning 60% 15 yoshli bolalarning – 90% gerpes infeksiyasi aniqlangan.

Birinchi marta 20-asr boshlarida N.F.Filatov (1902- yil) og'iz bo'shlig' shilliq qavati kasalliklari yuzaga kelishida gerpes virusining o'rnini aniqlandi. Bolalarda eng ko'p uchraydigan O'tkir aftoz stomatitning gerpetik harakterga ega bo'lishi mumkinligini aniqladi. Ushbu dalillar keyinchalik og'iz bo'shlig'i shilliq qavatlarining zararlangan hududlarining epitelial hujayralarida gerpes simpleks virusi antigeni aniqlanganda isbotlandi.

ETIOLOGIYASI.

Ulardan 80-90% gerpes virusiga to'g'ri keladi. Kamroq suvchechak, qizamiq, grip, qizilcha va OIV infeksiyasi fonida rivojlanadi.

- Zamburug'li stomatitlarni Candida albicans keltirib chiqaradigan stomatit.
- Bakteriyal stomatitga asosan stafilokokklar, streptokokklar va yana difteriya, gonoreya, sil, sifiliz sabab bo'lishi mumkin.
- Simptomatik stomatit oshqozon – ichak kasalliklari (gastrit, duadenit, kolit, ichak disbiozi) qon tizimi, endokrin, asab tizimi gelmentik invaziyalar fonida rivojlanadi.
- Allergik stomatit allergenning mahalliy ta'siriga reaksiya sifatida rivojlanishi mumkin.

Erta tug'ilish, og'iz bo'shlig'i gigiyenasiga rioya qilmaslik, blyashka to'planishi karies, briket, vitamin va minerallar yetishmovchiligi (B vitamin, foliy kislata rux va boshqa) og'iz bo'shlig'i va ichak mikroflorasini o'zgartiradigan dorilarni qo'llash ham bolalarda stomatit rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin. (antibiyotic, gormon, kimyoviy preparatlar) Gerpetik stomatit Potogen Herpes Simlex virusi Infeksiyka havodan , kantakt (idish-tovoq uy- ro'zg'or buyumlari) shuningdek redsidivlanuvchi gerpes bilan og'rigan bemorlardan yuqadi. 6 oylikdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda kasallikning ko'p tarqalishi bu davrda onaning interplasentar olingan imunitetning bolalarda yo'qolib borishi bilan bog'lik. Orttirilgan imunitet esa hali shakillanmagan. Katta yoshli bolalarda kasallikning kam uchrashi orttirilgan imunitet bilan bog'liq 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda kasallikning ko'p uchrashiga sabab bu yoshda to'qimalarda gistogematik to'siqlarning o'tkazuvchanligi yuqori va imunitetning morfologik ko'rsatkichlarning sustligi, epiteliyning yupqaligi va glikogen ribonuklein kislata mikkdorini kamligi va bazal membrana va biriktiruvchi to'qima tolalarning siyrakligi. O'tkir gerpetik stomatitning patogenezi o'rganilmagan. Barcha hollarda virusli infeksiya – virusli zarralarning adabtatsiyadan va hujayraga virusning kirib kelishidan boshlanadi. Organizmga kirgan viruslarning organizmga tarqalish yo'llari murakkab va kam o'rganilgan. Virus tarqalishining gematogen va nevral yo'llari bor. Bolalarda o'tkir stomatit davrida virusemiya kuzatiladi.

KLINIK BELGILARI.

-Haroratning keskin ko'tarilishi (37-37,5C , og'riq shaklida 39-40C)gacha;
-Submandibular va servikal limfa tugunlari shishishi;
-Yumshoq to'qimaning qizarishi va shishishi;
-Injiqliklar , uyquchanlik va bezovtalanish;
-Ovqatlanishni xohlamaydi;
-So'lakning yopishqoqligi ortadi;
- 2-3-kuni bolada og'riqli kichik pufakchalar ;
-Pufakcha yorilgandan so'ng , eroziya va yaralar paydo bo'ladi
-Kasallik pasayganda toshmalar marmar rangga kiradi.
-Og'ir shaklida bosh og'riqi, ko'ngil aynishi, qayt qilish va burundan qon ketishi mumkin.

DAVOLASH. 1.DIETA. 2. VIRUSLARGA QARSHI MODDALAR

-Asiklovir maz kuniga 5 marta har 4 soatda , 5-10 kun 3 oydan 12 yoshgacha
-Zoviraks maz kuniga 5 marta har 4 soatdan 4 kun yupqa qilib suriladi 12 yoshdan oshgan bolalar uchun
-Alpizarin maz 2 % li kuniga 4-6 marta 5 kun 1 yoshdan oshgan bolalar uchun

3. IMMUNAL sirop 1 hafta davomida 12-yoshdan oshganlar 2,5 ml dan 3 mahal , 6-12 yoshgacha 1,5 ml , 1-6 yoshgacha 1 ml dan beriladi
4. VITAMIN B , A , C
5. Shilliq qavatni tiklanishi uchun oblipixovoe masla 3 mahal 3-5 kun suriladi

Mahalliy teropiya: Davo pereparatlarni kasallikning turli va rivojlanish darajasiga bog'liq masalan aftoz stomatitda antibyotiklar buyriladi. Mahalliy davo kasallik qo'zg'atuvchisini yo'qotish va klinik belgilar (shish, o'riq) ni kamaytirishga qaratiladi.

Ovqatlanish ratsionini qayta ko'rib chiqish. Bola stomatit davrida o'g'iz bo'shlig'i ta'sirlovchi har qanday (sho'r, nordon, issiq , sovuq) ovqatlarni olib tashlash va suyuq ovqatlarni kiritish kerak.

Immunitetni kuchaytirish.Vitaminli preparatlar.

Uy sharoitida davolash: Uy sharoitida stomatitni ham tibbiy ham xalq tabobati vositalari yordamida davolash mumkin. Bu davo og'iz bo'shlig'i shilliq qavatidagi yara defektini yo'qotish, milklarni yallig'lanishi va ta'sirlanishini oldini olishga qaratiladi.

* Kondidoz stomatitda zararlangan soxalarga 1-2% li nistatin eritmasi surtiladi.
* Gerpesli stomatitda – atsiklovir yoki oksolinli maz surtiladi

XALQ TABOBATI USULLARI. Sodali tuzli eritma bilan og'iz chayiladi (1 stakan iliq suvga 1 choy qoshiq tuz, biroz osh sodasi va 1-2 tomchi yoq tomizish mumkin)

Yuqoridagi eritmani propolis nastoykasi, aloe yoki kalonxoe bilan almashtirish mumkin (yallig'lanishga qarshi effekti bor)

Bakterial stomatitda sarimsoq piyozni alohida yoki ovqat tarkibida yeyish foyda beradi.

Yangi artib tozalangan kartoshka sharbatini zararlangan joyga surtish foydali.

Sabzi sharbatining suvi bilan 1:1 eritmasi bilan og'izga ishlov berish yallig'lanish va shishni oldini oladi. Unga karam sharbatini qo'shsa effekti yana ortadi.

Og'riq sindiromi uchun 1 choy qoshiq vodorod peroksid va 1 tabletka furatsillinni 1 stakan suvdagi eritmasi bilan chayish tavsiya etiladi.

Uy sharoitlarida og'izni yana quydagi ko'katlarning eritmalari yordamida chayish mumkin: Moychechak, kalendula, shalfey, xren, smorodina, malina, oblepixa, yejivika. Buning uchun 2 choy qoshiqda ko'katlardan olinib , 3 stakan issiq suv bilan aralashtiriladi va 3 soatga tindiriladi

BITI
2s22 guruh talabasi
Sobirova Husniya

Biz nima uchun uxlaymiz?

Biz nima uchun uxlaymiz?
Uyqu odam organizmiga nimaga kerak?
Bizni nima sifatli uxlashimizga to'siq bo'lyapti?
21-asr zamonaviy texnologiyalar rivojlangan bir paytda insoniyat yetarli darajada uxlayaptimi?

Olimlar bu savollarga javob topish uchun hanuzgacha tadqiqotlar ustida izlanishmoqda. Uyqu bu hayot eliksiri. Qancha qisqa uxlasangiz, shuncha qisqa umr ko'rasiz. Inson suvsiz, ovqatsiz yashashi mumkin lekin uyqusiz yashay olmaydi. Uyquni odam organizmiga bo'lgan ko'pgina foydalarni sanashimiz mumkin. Dunyo statistikasiga qaraganda ko'plab kechasi ishlaydigan odamlarni ish samaradorligi kunduzgi ishchilardan past bo'ladi. Gap shundaki ko'pchilik uyquni yuqori maoshga almashtiradi. Ko'p odamlar ishi ko'pligi uchun kechasi uxlamaydilar.

Barcha ishlariga kunduzi ulgurmasliklarini asl sababi esa ularni kechasi yetarli darajada uxlamaganliklarida bo'ladi.

Butun hafta uxlamay bosim ostida ishlab dam olish kunlari uxlashadi. Miya esa yo'qotilgan uyquni qayta tiklash qobiliyatiga ega emas.

Dunyoni eng boy kompaniyalaridan bo'lgan Nike va Google ham ish vaqtidagi qisqa uyqu xodimlarni unumdorlik va ijodkorlikni oshirishi, shu bilan birga ularni ishdan chalg'ishini oldini olishiga ishonadilar.

1990-yilda NASA ham astranauntlar manfa'ati uchun ish ustida uxlashga imkon berdi. Ish joyida alohida uxlash uchun xonalar ajratilgan.

Ularni aniqlashicha, 26 daqiqalik qisqa uyqu ish koeffitsientini 34% yaxshilashi va hushyorlikni 50 % dan oshirish imkonini beradi.

Qiziq, ular ishchilarni uxlagani uchun maosh to'laydimi degan savol paydo bo'lishi mumkin.

Sifatli uyqu ishchi xodimlarni IQ darajasi baland bo'lishini ta'minlaydi

2014-yilda Travis Bredberri "Biz ish joyida o'rgangan barcha yuqori ko'rsatkichli ishchilarni 90% yuqori emotsional intellektga ega ekanliklarini aniqladik" deb ta'kidlaydi. Haqiqatdan ham chuqur uyqu paytida IQ darajasi yaxshilanishi isbotlangan. Odamlar miyasida juda ko'p chuqur his tuyg'ularni boshlaridan kechirishadi. Miya ularni aynan tungi uyqu vaqtida tartibga solishi mumkin.

Uyqu yangi o'rgnilgan ma'lumotlarni miyaning uzoq muddatli xotiraga aylantirishga yordam beradi. 24 soat uxlamagan odam miyasi spirtli ichimlik ichgan odam miyasi bilan bir xil darajada bo'lishi o'rganilgan.

Uyqu miyadagi Gipokamp markazini ajoyib tarzda tozalaydi va bu qisqa muddatli ma'lumotlarni uzoq muddatli xotiraga aylantiradi.Shu bilan birga keraksiz ma'lumotlar omborida juda ko'p bo'sh joy yaratish imkonini beradi.

Tungi uyqu murakkab matabolitik faol tartiblangan bosqichlar amalga oshiriladi.

Insonning yuqori metabolitik tezligi uning uyqu vaqtida ko'proq tozalash harakatini ta'lab qiladi.

Bilamizki,miyaning limbik tizimi bizni hissiyotlarimizga javob beradi.

Talamusni esa miyaning hissiyotlar darvozasi deb ataymiz. Miya uyquga ketgan vaqtda talamus eshiklari yopiladi va keladigan signallarni kortexga (po'stloq) borishga to'sqinlik qiladi. Natijada esa biz tashqi sezgi a'zolaridan keladigan axborotni ongli ravishda bilmaymiz. Inson va hayvonlarda asab tizimini murakkabligi, tana hajmiga nisbatan ortib boradi, shunga yarasha uyqu miqdori ham ko'payadi.

Yoshga qarab uyqu miqdori va sifatini oshib borishi ham aynan bizning markaziy nerv sistemamizning rivojlanishiga bog'liq.

Ona qornidagi homila bir kunda atigi 3-4 soatgina uyg'oq bo'lar ekan. Qarilikda esa uyquning buzilishi nerv sistemasi bilan bog'liq bo'ladi.

Shuning uchun ham chaqaloqlar, yosh bolalar va o'smirlar ko'proq uyquga moyil bo'lishadi.

Hozirgi kunda xalq ichida Alzgeymer kassaligi tobora rivojlanmoqda.Tadqiqotlarga ko'ra 28 -45% kassalik irsiy omillar bilan ota-onadan bolaga o'tsa, qolgani hayotiy omillardan o'tishi mumkin. Ular ko'p miqdorda koffein, spirtli ichimliste'molqilish qilish, chekish va kam uxlash misol bo'ladi.

Uyqu vaqtida miyada glimfatik tizim tomonidan evakuatsiya qilingan zaharli oqsillarni bir qismi amiloid oqsilidir. Bu zaharli oqsil Alzgeymer kassaliginini keltirib chiqaradi.

Hozirgi jamiyatda odamlar insomnia (uyqusizlik) kassaligidan ko'p aziyat chekishmoqda.

Yer yuzida millionlab aholi sun'iy uyqu keltiradigan dorilar, antidepressantlarga pul sarflashmoqda. Bu dorilarni qabul qilib uxlagandan so'ng ularni foydasi ketadi. Insonni markaziy nerv sistemasini faqatgina zararlaydi.

Narkolepsiya kassaligida bemor kunduzi to'satdan uxlab qolishi gipotalamusga oreksin deb nomlangan neurotransmitter yetishmasligi orqali bo'ladi. Buni natijasida tungi uyqu buziladi.

Dr. Van Kauter miyada ochlik va to'qlik gormonlari joylashgan deb aytgan. Leptin-to'qlik gormoni. Grelin - kuchli ochlik hissini beradi. Qancha kam uxlasangiz shuncha yeyishga xoxish paydo bo'ladi.

Tanada uyqusizlik paytida qancha ovqat bo'lsa ham ochlik markazi bundan qoniqmaydi va inson to'yganlik hissini sezmaydi. Buning natijasida esa semizlik va qandli diabet kassaliklari rivojlanadi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, ikkita bir xil yoshda bo'lgan uyqusizlikdan aziyat chekadigan erkaklarda sifatli uxlaydigan erkaklarga nisbatan 10 baravar past testosteron miqdori borligi aniqlangan va ular jinsiy hayotda ham ko'pgina qiyinchiliklarga duch kelishlari isbotlangan.

Tunning ikkinchi qismida erkaklarda testosteron,ayollarda esa estrogen gormonlar ishlab chiqariladi.

Shu bilan birga kechki payt ishlaydigan ayollarda ham hayz siklida 33% muammo borligi va ularni 80 % homilador bo'lish ehtimoli past ekanligini bildiradi.

Hech o'ylab ko'rganmisiz biz nega tush ko'ramiz?

Bu borada biz Zigmund Freydni ko'zga ko'rinarli darajada tadqiqotlar olib borganini ko'rishimiz mumkin.

U 1899-yilda o'zini "Tushlar ta'biri" kitobini psixoanalitik yondashuv asosida yozgan.

Freydni fikricha, tushlar amalga oshmagan ongsiz istaklardan kelib chiqqan. U tushlarni neyrologiya bilimlari sohasiga aylantiradi. Freyd tushlarni terapiyaga qiyoslagan.

Butun dunyoga mashhur buyuk kimyogar olim Mendeleyev yillar davomida uzoq besamar urinishlaridan so'nggina davriy jadvalni yaratgan.

U tinmasdan uch kechayu, uch kunduzlik harakatlardan keyin uxlab qoladi. Uning tush ko'rgan miyasi uyg'ongan miyasi qilolmagan ishni qiladi.

Dunyoni yo'rug'likga to'ldirgan Tomas Edison ham kunning ma'lum bir qismida uxlash kerakligini aytgan.

Hozirgi zamonaviy Led chirog'lari sezilarli darajada odam organizmiga ta'siri bor. Kechki uyqudan oldin telefon, komputerlardan chiqadigan nurlarni o'zi organizmni uxlaydigan paytda 50 %kam miqdorda melatonin ishlab chiqarishi isbotlangan.

Sifatli uyquga ketish uchun kuning ikkinchi qismidan keyin koffein iste'mol qilmaslik kerak. Kofein odatda adenozin orqali miyaga uzatiladigan uyqu signallarini bloklaydi. Buning natijasida uyqu yetishmovchiligi kelib chiqadi.

5d22 guruh talabasi
Zokirova Sabrina Toxirovna

Sport yangiliklari

Sportning «YENGIL ATLETIKA» turi bo'yicha sog'lomlashtirish tadbiri o`tkazildi

Ko'pgina yengil atletika mashqlari umumiy omma-eng kichik yoshdagi bolalardan boshlab kattalargacha bu mashqlar kundalik hayotda har xil turda uchraydi va turlicha me'yorlanadi yengil atletika bilan yil davomida shug'ullansa bo'ladi Shu sabablarga ko'ra yengil atletika mashqlari (yurish,yugurish,sakrash va uloqtirish) dan iborat. Bugungi kunda jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, uchun yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanish uchun zamon talablariga mos shart-sharoit yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shunungdek, yoshlar orasida iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Buxoro innovatsion tibiyot institutning Yoshlar bilan ishlash va tashkiliy ishlar bo'yicha prorektori T.T.Odinayev so'zga chiqib, "Besh tashabbus olimpiadasi" sport tadbirlari hozirgi kunda sport bilan shug'ullanish uchun har bir yosh uchun juda zarur ekanligi, chunki sport bilan shug'ullanish ham jismonan ham aqlan rivojlanishga yordam berishini, muntazam sport bilan shug`ullangan inson atrofdagilarga nisbatan kuchli va teran fikrlovchi shaxs bo'lib voyaga yetishi haqida aytib o'tdi. O'z ma'ruzasida sportning bugungi kunda ijtimoiy hayotda qanchalik o'rni katta ekanligini aytib o'tdi. Sportni rivojlantirish uchun yurtimizda juda ko'p islohotlar o`tkazilayotganini aytib o`tdi. Shu o'rinda beshta muhim tashabbusning bir bandi ham aynan sportni rivojlantirishga qaratilganligini va misollar orqali o'z fikrlarini bildirdi.

Shundan so'ng Buxoro innovatsion tibbiyot instituti sport va tashkiliy ishlar bo'yicha bo'lim boshlig'i N.N.Davronov ham sportning kelajakni va sog`lom turmush tarzini rivojlantirishdagi o`rni juda katta ekanligini aytib o`tdi. Bunday sport tadbirlari va mashg`ulotlari tez-tez tashkillashtirib turilishini ta'kidlab o`tdi.

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti Sport va tashkiliy ishlar bo'yicha bo'lim boshlig'i

N.N.Davronov

"Shaxmat klubi" tomonidan "Rokirovka" turniri musobaqasi o`tkazildi

Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi qoshidagi "Shaxmat klubi" tomonidan "Rokirovka" turniri musobaqasining Buxoro viloyat bosqichi tashkil etildi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha beshta ta muhim tashabbus ilgari surilgan edi. Shundan ikkinchi tashabbus; yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan edi.

"Hech narsa mamlakatni sportchalik dunyoga tez tanita olmaydi". Bilamizki, hozirgi kunda bizning mamlakatimizda ham sportning juda ko'p turlari rivojlanib, jahon arenalarida sportchilarimiz yuqori o'rinlarni egallab, yurtimiz dovrug'ini butun dunyoga tanitmoqda. Shu tufayli, yurtimizda sportning rivoji va uning porloq kelajagi uchun keng ko'lamdagi ishlar, shart-sharoitlar yaratilmoqda. Sportning bugungi kunda ijtimoiy hayotda qanchalik o'rni katta ekanligini aytib o'tdi. Sportni rivojlantirish uchun yurtimizda juda ko'p islohotlar o`tkazilayotgani, shu o'rinda beshta muhim tashabbusning bir bandi ham aynan sportni rivojlantirishga qaratilganligini va misollar orqali o'z fikrlarini bildirdi. Buxoro innovatsion tibbiyot instituti sport va tashkiliy ishlar bo'yicha bo'lim boshlig'i N.N.Davronov ham sportning kelajakni va sog'lom turmush tarzini rivojlantirishdagi o'rni juda katta ekanligini aytib o'tdi. Bunday sport tadbirlari va mashg'ulotlari tez-tez tashkillashtirib turilishini ta'kidlab o'tdi.

Ushbu musobaqada Buxoro innovatsion tibbiyot institutining 8d22- guruh talabasi Tilloyeva Shoxsanam munosib ishtirok etib faxrli III-òrinni egalladi va 200000 sòmlik vaucherga ega bòldi.

O'zbekiston chempioni oliy toifali shifokor Vaxidov Aziz Yaxyayevich xotirasiga bag'ishlangan stol tennisi sport turi bo'yicha viloyat turniri bo`ldi

O'rta Osiyo o'yinlari sovrindori, Ozbekiston terma jamoa a'zosi,ko'p karra O'zbekiston chempioni oliy toifali shifokor Vaxidov Aziz Yaxyayevich xotirasiga bag'ishlangan stol tennisi sport turi bo'yicha viloyat turniri musobaqasida Buxoro innovatsion tibbiyot instituti o'qituvchilari ham faol ishtirok etishdi.

Dunyoda mashhur davlatlar AQSH, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Braziliya kabi mamlakatlar aynan sportning stol tennis turidan ustunligi bilan barchamizga tanish. Bilamizki, hozirgi kunda bizning mamlakatimizda ham sportning juda ko'p turlari rivojlanib, jahon arenalarida sportchilarimiz yuqori o'rinlarni egallab, yurtimiz dovrug'ini butun dunyoga tanitmoqda. Shu tufayli, yurtimizda sportning rivoji va uning porloq kelajagi uchun keng ko'lamdagi ishlar, shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Musobaqada Buxoro innovatsion tibbiyot instituti sport va tashkiliy ishlar bo'yicha bo'lim boshlig'i N.N.Davronov, klinik va klinik oldi fanlar kafedrasi o'qituvchilardan Hojiyev Akmal,Yodgorov Ulug'bek,Najmiddinov Husev,Jo'rayev Kozim va Ergashov Dilshod ishtirok etishdi. Jumladan, Ergashov Dilshod faol ishtirok etib, munosib III-o'rinni egalladi.

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti Sport va tashkiliy ishlar bo'yicha bo'lim boshlig'i N.N.Davronov

Qiziqarli krossvord





Krossvord savollar:

1.Miyaga qon quyilishi. 2.Yurak ritmining me'yoridan ko'p urushi. 3.Biror tana qismini kesib tashlash.
4. (bo`yiga) Bronxlarning infeksiyalanishi (yallig‘lanishi). 4. (eniga) Ayollarning bola rivojlanadigan qorin sohasidagi xaltasimon a’zosi. 5. Tutqanoq. 6.Homiladorlik yoki tug‘ruqdagi kutilmagan tutqanoq. Homiladorlikdagi kech toksikoz oqibati.7.Odamning o‘ziga keltirib bo‘lmaydigan darajada hushidan ketishi. Bu kasallik, jarohat, zaharlanish yoki boshqa kasallik natijasida kelib chiqib ko‘pincha o‘limga olib keladi. 8. Yurakning normal qisqarishini buzulishi. 9. Ich ketish. 10. Qonda karbonat angidrid gazining miqdori ortib ketishi na-tijasida nafasning vaqtincha to`xtab qolishi. 11. Qorin pardasining yallig'lanishi. 12. Qonda eritrotsitlar soni va gemoglobin miqdorining kamayishi, sifatining o`zgarishi bilan kechadigan kasallik 13. Yog`simon modda (li-poid)lar almashinuvi buzilib, ularning arteriya ichki qavatida to`planishi va biriktiruvchi to`qimaning o`sib ketishi natijasida kelib chiqadigan surunkali kasallik. 14. Orttirilgan Immunitet Tanqisligi Sindromi.15. Homiladorlikning birinchi oylarida, ko‘pincha ertalab bo‘ladigan ko‘ngil aynishlar va qayt qilishlar.

Krossvord javoblari gazetaning №4-sonida e`lon qilinadi.

Tayyorladi: Rustamova Kamola
Buxoro innovatsion tibbiyot instituti
11d23 guruh talabasi

"Tibbiyot sirlari" gazetasi №3 (23-dekabr 2023)
Bizning manzil:Buxoro shahri Namozgoh ko'chasi 112,
Mo'ljal: "Buxoro innovatsion tibbiyot instituti".
Bosh muharrir: To`xtayev Sanjar Maxsudovich
Gazeta uchun maqolalarni saralovchi va nashrga tayyorlovchi:
Djabbarova Mexriniso Samadovna

https://biti.uz/gazeta
Telegram:@bitiinfo
Instagram: biti_uz
Telefon:91 239-90-77
Gazetamizning keyingi sonlari uchun maqolalar qabul qilamiz.

Buxoro innovatsion tibbiyot institutining nashri
Buxoro innovatsion tibbiyot institutining nashri
Buxoro innovatsion tibbiyot institutining nashri